

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

BOBOXONOVA FARANGIZ

**XOR MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA TALABALARDA
JO'RSIZ ASARLAR BILAN ISHLASH MALAKALARINI
SHAKLLANTIRISH.**

**Musiqiy ta'lim bo'yicha magistr
darajasini olish uchun**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar:

“Musiqi o'qitish metodikasi va
xalq cholg'u asboblari” kafedra mudiri

prof:A.Ergashev_____

E.K.Jalilov_____

SAMARQAND -2013.

M

MUNDARIJA

Kirish.	3-8
I BOB:XOR SAN'ATINING MUSIQIY TA'LIM –TARBIYA TIZIMIDA TUTGAN O'RNINI VA AHAMIYATI.	9
1.1. Musiqiy ta'lim –tarbiya tizimida xor ijrochiligi yetakchi faoliyat sifatida.	9-15
1.2. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlash muammolari.	16-22
Birinci bob bo'yicha xulosalar.	23
II BOB:PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI XOR DIRIJORLIGI FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI.	24
2.1. Xor ijrochiligida jo'rsiz kuylash yuqori malakaviy tayyorgarlik omili.	24-35
2.2. Talabalarni jo'rsiz asarlar bilan ishlashga o'rgatishning o'ziga xos metodik imkoniyatlari.	35-52
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.	53
III BOB: XOR MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA TALABALARGA JO'RSIZ ASARLAR BILAN ISHLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN AMALIY TAJRIBALAR.	54
3.1.Talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish uslublarini amaliyitga tadbig'i.	54-62
3.2.Talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini darajasini aks ettiruvchi ko'rsatgich va mezonlar tahlili.	63-68
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.	69
Umumiy xulosa va tavsiyalar.	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	71-73
Ilovalar.	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Oliy pedagogik ta'limning musiqa ixtisosligidagi amaliy ijrochilik bilan bog'liq fanlar (vokal ijrochiligi, dirijorlik, cholg'u ijrochiligi xor va xorshunoslik asoslari) o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, darslarda talabalarni fan bo'yicha maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga yo'naltirilgan vazifalardan tashqari ularni amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olish, ya'ni ijodiy ijrochilik malakalarini egallashlari ham talab etiladi. Bu ayniqsa talabalarni maktab faoliyatiga eng muhim bo'lgan xor ijrochiligiga ko'proq taluqlidir. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari bu faoliyatda xorda kuylashning eng muhim unsurlari, ya'ni vokal xor malakalarini egallash bilan bir qatorda o'zlari ham xor jamoasi bilan ishlashga tayyorlanib borishlari kerak bo'ladi. Manba musiqa darslarida xor bo'lib kuylash eng yetakchi va darsning asosiy qismini tashkil etuvchi, o'quvchilarni yalpi qamrab oladigan faoliyat hisoblanadi. Bundan tashqari bu ancha murakkab jarayon bo'lib, xor rahbarida ko'p qirrali bilim, tajriba, malakalarni talab qiladi. Shuning uchun ham talabalarni manba faoliyatiga tayyorlashda ularni xor dirijori, xor rahbari sifatidagi musiqiy-nazariy va amaliy ijrochiligiga unung pedagogik tayyorgarligiga jiddiy va ustuvor ahamiyat berish lozim bo'ladi. Bizga ma'lumki umumta'lim maktablari musiqa darslarida har bir sinf alohida xor jamoasi hisoblandi. Shu bilan birga o'quvchilar xorini turli ko'rik tanlovlar, bayram konsertlariga, sinf konsertlariga tayyorlashga musiqiy ta'lim va tarbiyaning uzviy tarkibiy qismi kirish vazifasini qo'yadi. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi sinfda xor rahbari sifatida o'quvchilarni 1-sinfdan boshlab vokal xor malakalarini egallab borishlariga yaxshi soz, sof intonatsiya badiiy ansambl, vokal tovush hosil qilish, tovushni qo'llash, musiqalarini tushunib va emotsional ta'sirchan ijro etishga ko'p ovozli hamda jo'rli va jo'rsiz qo'shiq aytish malakalarini egallab olishga o'rgatib borish kerak bo'ladi. Buning uchun esa o'qituvchining o'zi xor bilan ishlash malakalarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda biz viloyatimiz shahar va tumanlardagi umumta'lim maktablaridagi ko'plab musiqa

o'qituvchilarini faoliyatini ko'zdan kechirganimizda aksari ko'pchilik o'qituvchilarni xor bilan ishlash malakalari talab darajasida emasligiga guvoh bo'ldik. Bu maktab (sinf) xorlarining ijrolarini bir ovoz bilan cheklanganligi, yaxshi soz, amaliylik ko'p ovozli kuylash tajribasiga ega xor jamoalarini nihoyatda kamligi, borlarini ham repertuarida jo'rsiz kuylash mo'ljallangan asarlarni yo'qlagida ko'rildi. Kuzatuvchilarimiz bu muammolarni negizi oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlashda ularni xor dirijori sifatidagi malakaviy tayyorgarligiga yetarli e'tibor berilmayotgani bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Bu esa biz tomonimizdan dissertasiya tadqiqotimiz mavzusini "Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish" deb tanlashimizga sabab bo'ldi.

Muammoni o'ranilganlik darajasi: bizga tarixdan shu narsa ma'lumki, hozirgi paytda dunyo xalqlari madaniyatidan keng o'rin olgan xor san'atining vujudga kelishi uzoq tarixga ega bo'lib, asosan uning ildizlari barcha xalqlarning mehnat faoliyati an'anviy marosimlari bilan bog'liqdir. Lekin san'atning muayyan shakli (formasi) sifatidagi shakllanishi G'arbiy Yevropa mamlakatlarining cherkov qo'shiqchiligi bilan bog'lanadi. Bizda ham jamoa bo'lib qo'shiq kuylash an'analari qadimdan mavjud bo'lsada, ular to'la ma'noda xor (ko'p ovozli, ovozlar partiyaga bo'lingan, asarlar xorga moslashtirilgan) ijrochilik san'ati talabalarga mos kelmasligi bilan ajralib turadi. Ko'p ovozli professional va vokal xor ijrochilik san'ati O'rta Osiyo xalqlari jumladan o'zbek musiqa madaniyatiga XX asrning 20-30 yillarida kirib keldi. XX asrning 30-70 yillari O'zbekistonda bu san'at turini jadal rivojlanishi davri bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Bu davrda O'zbekistonda juda ko'plab havaskorlik va professional o'quv xorlari tashkil topdi. Xor ijrochiligi musiqa ta'lim ixtisosligi bo'yicha, shuningdek umumta'lim maktablari musiqa darslariga tadbiiq etildi. Xor ijrochiligining nazariy masalalari, xor san'atining ta'lim-tarbiyadagi o'rni, imkoniyatlari, uning vositasida g'oyaviy, ma'naviy, estetik tarbiyasiga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar ham asosan shu davrga to'g'ri keladi. Bu o'rinda rus pedagogik olimlarining ishlarini e'tirof etish

o'rinliroq bo'ladi. B.V.Asafyevning "Xorovaya kultura", "Russkaya muzika XIX I nachalo XX veka", "O xorovom iskusstve", L.1980, P.G. Chisnakovning "Xor I upravleniyeim", M.1961., A.A. Nigorovning "Teoriya i praktika raboti s xorom." 1957yil, G.A.Dmitriyevskiyning "Shkola Xorovogo peniya", M.1960, L.Shaminaning "Rabota s samodeyatelnim xorovim kollektivom", M.1983yil, larning monografiya ilmiy-uslubiy xor san'atini nazariy va amaliy ijrochilik masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Bu ishlarning yana bir muhim tomoni ularda havaskorlik va professional xorlarda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar mashg'ulotlar mazmuni, xor ijrosininig eng muhim elementlari ustida ish olib borish tajribalar yoritib berilgan. O'zbekistonda bu borada qilingan ilmiy-uslubiy ishlarga S.A.Valenkov, R.E.Xublarovlarning "Havaskorlar xori", E.Guskova, A.B.Valiyevaning "Ashula darsligi metodikasi", M.Kavboening "Nekotoriye viroen razvitiya muzikalnoy samodeyatelnosti v Uzbekistane" kabilarni misol keltirish mumkin. Bu ishlarda xor ijrochiligini musiqa ta'limi bilan bog'liq ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan. Sh. Ro'ziyev, N.Shadriyevalarning "Xorshunoslikka bag'ishlangan o'quv qo'llanmalarida xor jamoalarida olib boriladigan vokal xor ishlari qisman yoritib berilgan. Ko'riladigan respublikamizda ushbu yo'nalishda qilingan ishlar aynan ta'lim muassasalari o'quv jarayoni bilan bog'langan. Bu biz tomonimizdan tanlangan mavzuni musiqa ta'limida dolzarb muammoga bag'ishlangan tadqiqot sifatida baholash imkoniyatini beradi. Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida ta'lim tizimini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammolarini isloh qilish "Davlat ilmiy texnika dasturi O'zPITIning XT-F2-003" Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari va strategiyasini belgilash" ilmiy laboratoriyasining tadqiqot ishlari rejasi shunungdek A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarildi.

Tadqiqot maqsadi: Jamoa bo'lib kuylash jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini jo'rsiz asarlar ustida ishlashga o'rgatishning metodik tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Xor ijrochiligi san'at, xor dirijorligi va uni o'qitishga doir ilmiy-pedagogik manbalarni o'rganish, tahlil qilish;
2. Oliy pedagogik ta'lim tizimida xor ijrochiligi bo'yicha ma'lumotlarni kuzatish, xor dirijorligi bo'yicha talabalarni maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlarini o'rgatish;
3. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida jo'rsiz xor asarlari bilan ishlash malakalarini shakllantirishning samarali shakl usullarini aniqlash;
4. Talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirishni imkonini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: pedagogika oliy o'quv yurtlarining musiqiy ta'lim yo'nalishlarida talabalarni jo'rsiz asarlar bilan ishlashga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: bo'lajak musiqa o'qituvchilarida jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish mazmuni va metodikasi.

Tadqiqot metodlari:

-Xor va xorshunoslik, xor dirijorligi va uni o'qitish metodikasiga oid manbalarni o'rganish, tahlil qilish ;

-Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar, fan dasturlarini o'rganish;

-musiqiy ta'lim yo'nalishida xor va xorshunoslik fanini o'qitish holati, muammolarni o'rganish;

-Musiqqa o'qituvchilari va talabalari orasida so'rovnoma va suhbatlar o'tkazish;

-Xor bilan ishlash bo'yicha ilg'or tajribaga o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish;

-Pedagogik tajriba sinov ishlarini tahlil qilish, natijalarni matematik – statistika vositasida aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarish.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda jo'rsiz asrlar bilan ishlash malakalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik muammo ekanligi;
2. Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirishning o'ziga xos metodikasi;
3. Talabalarni jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar;
4. Talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy metodik tavsiyalar.

Ishning ilmiy yangiligi:

-Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xor ijrochiligi bo'yicha maktab faoliyatiga tayyorlash tajribalari o'rganildi, tahlil qilindi.

-Xor ijrochiligi jarayonida talabalarda jo'rsiz xor asarlari bilan ishlash malakalarini oshirishga xizmat qiluvchi va bu jarayonni samaradorligini ta'minlovchi metodik tizim ishlab chiqildi;

-Xor va xorshunoslik, xor dirijorligi fanini o'qitish metodikasi yangi nazariy va metodik ma'lumotlar bilan boyitildi.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Xor ijrochiligi jarayonida talabalarnig jo'rsiz xor asarlari bilan ishlash jarayoni samarali bo'ladi, agarda:

-Xor ijrochiligi jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini jo'rsiz asarlar bilan ishlashga tayyorlash imkoniyatlari ochib berilsa;

-Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni va metodikasi yangicha pedagogik yondashuvlar tavsiyalar bilan boyitilsa;

-Xor ijrochiligi faoliyatida talabalarni xor bilan ishlash amaliyoti bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirishga erishilsa;

-Ta'lim jarayonida ilg'or tajribalar, samarali ish shakl, usul, vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilsa.

Tadqiqotning metodik asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, oliy ta'lim, musiqa fanlarini o'qitish bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, xor va xorshunoslik asoslari, xor dirijorligi, musiqa o'qitish metodikasiga oid ilmiy, o'quv uslubiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limni rivojlantirishga oid asarlari, ma'ruza va nutqlari, hukumatimiz tomonidan chiqarilgan ta'lim-tarbiyaga oid qaror, buyruq, farmoishlar, shuningdek pedagogika, texnologiya, san'atshunoslikka oid manbalar xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Oliy pedagogik ta'lim tizimida xor va xorshunoslik va xor dirijorligi fanini o'qitish jarayoni bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktabda xor jamoasi bilan shu jarayonda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini hosil qilishga oid nazariy, amaliy va metodik pedagogik yondashuvlar bilan boyitildi. Xor ijrochiligi jarayonida talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ulardan pedagogika oliy o'quv yurtlari umum ta'lim maktablari va boshqa ta'lim yo'nalishlarida ta'lim amaliyotida foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari A.Navoiy nomli Samarqand Davlat Universiteti "Musiqiy ta'lim yo'nalishi" hamda Samarqand san'at kollejlari tajriba sinov ishlarida amaliyotga tadbiiq etildi. Ishning mazmuni, ilmiy xulosalar, bir qator ilmiy amaliy anjumanlar, jurnal va to'plamlarda maqolalar e'lon qilish va ma'ruzalarda o'z aksini topgan.

Dissertatsiya materiallari asosida – ilmiy metodik maqolalar chop etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 6 poragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat bo'lib, hajmi tashkil etadi.

I BoB: XOR SAN'ATINING MUSIQIY TA'LIM –TARBIYA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI.

1.1. Musiqiy ta'lim –tarbiya tizimida xor ijrochiligi yetakchi faoliyat sifatida.

Jamiyatning madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy, axloqiy, estetik negizlarining rivojlanmish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Respublikamiz prezidenti I.Karimov qayd qilganidiki, “Bu negizlar milliy qadriyatlariga sodiqlik, an'anviy merosni mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlikdan iborat”

Umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida Respublikamizda o'sib kelayotgan yoshlarning madaniy, ma'naviy va estetik komolotiga erishishi asosiy o'rin tutadi. Barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari aynan ularni badiiy tafakkuri, estetik didi, madaniy saviyasini birinchi navbatda shakllantirishni taqazo etadi bu vazifani amalga oshirmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi taraqqiyotni to'la-to'kis taminlash muhim ahamiyatga ega. Zamon talablariga har tomonlama javob beradigan yuqori malakali barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish yo'lidan dadil borayotgan jamiyatimizning eng oily maqsadidir.

Barkamollikning yuqori sifat darajasini belgilovchi mezoni chinakkam ma'naviy va ma'rifatlilik bilan belgilanadi-ki, bu oliy haqiqat buyuk Sharq allomalarining ilmiy asarlarida har tomonlama asoslab berilgandir.

Respublikamizda yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda esa musiqa ta'limi va uning negizida olib borilayotgan tarbiyaviy maqsad va vazifalar alohida o'rin tutadi. “Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz albatta, bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi...eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda” – deydi Prezidentimiz I.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asarida”.(141-bet).

Darhaqiqat musiqa ta'limiy va tarbiyaviy jarayonida musiqiy tafakkur, bilish jarayoni musiqiy idrok, tasavvur, tushunchalar rivojlanadi.

Inson musiqa tinglashi, qo'shiq kuylashi orqali o'z ichki his-tuyg'ularini voqelik hodisalarini ongli his etadi. Ruhiiy hissiyotlar orqali olamni tushunadi, so'ngra ularni boshqa tinglovchilarga yetkazmoq uchun musiqiy ijod orqali shakllarga kiritadi. Vaholanki, atrofimizni tabiat hodisalari, inson va tabiat tomonidan yaratilgan turli-tuman narsalar mavqeyli va musiqiy ohanglar qurshab olgan.

Olam o'zining nihoyatda xilma-xil tovush tembrlari, ranglari va bo'yoqlari bilan inson hissiyotiga kuchli ta'sir etib turadi. Musiqa ohanglari va tovushlari majmuasi inson sezgilarida aks etadi. O'sib kelayotgan yosh-avlodning xususan, maktab o'quvchilarining musiqa madaniyati, estetik qarashlarini, ijodiy faolligini, istedod va qobiliyatlarini namoyish etish fazilati musiqiy ta'lim-tarbiya negizida ro'yobga chiqadi. Bu fazilarlar ayniqsa, qo'shiq kuylash faoliyatida yorqin ko'rinish oladi. Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarida esa qo'shiq kuylash, xor bo'lib kuylash faoliyatida nomoyon bo'ladi. Xor san'ati adabiy va musiqiy ijodning o'zaro uyg'unlashuvi natijasidagi san'atdir. Bu san'at o'zining ijrochilik sifat xususiyatlariga ko'ra ko'pchilik, xususan xalq qo'shiqchilik ijodi bilan bog'liq bo'lib, dastlab G'arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlanib hozirgi kunda jahon xalqlari musiqa madaniyatiga keng kirib borgan va ommaviylik kasb etgan san'atdir. O'tmishda o'zbek xalqining qo'shiqchilik ijodiyoti asosan monodik shakllarda bo'lganligi uchun shakl va ko'rinishdagi xor ijrochiligi sifatida bo'lmagan. Jamoaviy qo'shiqlar ham asosan bir ovozli shaklda bo'lgan. Lekin, O'rta Osiyo shu jumladan o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyotiga zamonaviy ijrochilik o'zining qadimiy ildizlariga egadir.

Xor san'ati shunday bir san'atki, unda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib yaxlit badiiy obraz yaratiladi. Bu san'at vujudga kelishi bilan xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq. Uning bir tarmog'i sifatida o'zi mansub

bo'lgan xalq musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga muhim ro'l o'ynab kelgan.

O'tmishda xor ijrochiligi O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatiga bu san'at turi o'tgan asrning 20-yillarida kirib keldi. Mazkur xalqlar o'zlarining milliy qo'shiqchilik an'analariga tayangan holda o'zining milliy xor san'atini yarata boshladilar. Xususan bizning o'zbekistonimizda ham dastlabki xor qo'shiqlari shu tarzda paydo bo'ldi. XX asrning 30-yillarida musiqa fan sifatida ta'lim tizimiga kiritilishi bilan maktab musiqa darslari asosan "ashula darsi" qo'shiq kuylash faoliyatida tashkil etiladigan bo'di. Shu yillardan respublikada musiqa-qo'shiqchilik ya'ni xor havaskorlik to'garaklarining tashkil etilishi ommaviy tus ola boshladi. 1934-yilda o'tkazilgan Toshkent havaskorlik san'atining viloyat musiqa-badiiy olimpeadasi o'tkazilib unda ilk bor Toshkent shahar 36-maktab xor jamoasi ishtirok etadi. Bu anjumanda Respublikada ilk bor 1000 kishilik qo'shma ma'naviy (ommaviy) xor qo'shiq kuylaydi.

Xor havaskorlik zaminida bolalar xor ijodiyoti ham o'sib rivojlanib bordi. Bolalar xorlari uchun ijod qiladigan maxsus kompazitorlar yetishib chiqdilar. Ko'plab o'zbek xalq va bolalar xalq qo'shiqlari bolalar xorlari uchun moslashtirilib, repertuari keng rivojlandi. Asta-sekin bolalar xor san'ati respublikadan tashqarida ham keng san'at shinavandalari e'tiboriga tushdi. Bolalar xori san'atining amaliy dirijyorlari, xor rahbarlari va kompozitorlari uning keng va ommaviy ravishda rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar. Bugungi kunda bolalar xor san'ati o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagiga aylangan. Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablarida musiqa mashg'ulotlarida jamoa (xor) bo'lib qo'shiq kuylash yetakchi o'rin egallaydi. Biz mazkur ish mazmunida bolalar xor san'atining O'zbekistonda rivojlanishi va bugungi rivoji haqida so'z yurgizishga harakat qildik.

Yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda san'atning barcha turlari qatorida xor ijrochiligi eng muhim vositalardan hisoblanadi. Darhaqiqat, umumta'lim maktablaridagi musiqiy ta'lim mazmunida bolalarning

musiqiy idrok, madaniyati, badiiy didi, dunyoqarashi shakllanadi. Bu xislatlar musiqiy ta'limning qo'shiq kuylash ya'ni xor bo'lib kuylash faoliyatida yorqin ko'rinish oladi. Chunki jamoaviy xor ijrochiligi bugungi kunda eng ommaviy ijrochilik shakli sifatida deyarli barcha taraqqiy qilgan mamlakatlar madaniyatida munosib o'rin topgan san'atdir.

Jamoaviy qo'shiq kuylash xalqimiz qo'shiqchilik madaniyati tarixida ham o'zining qadimiy ildizlariga egadir. Chunki, jamoaviy ijrochilik uzoq tarixga egadir. Kishilar o'zining mehnat faoliyati turmushidagi turli mehnat va marosim, mavsumlarga bog'lab qo'shiqlar kuylashgan. Bu qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib sayqallanib, mukammallashib kelgan. Ayollarni yor-yorlari, laparlari, beshqarsak, ramazon qo'shiqlari, marsiyalar jamoaviy tarzda aytilgan. "Shashmaqom"ning vokal qismidagi taronalar ham ko'pchilik ijrochilar tomonidan kuylangan. Ularning barchasi o'zbek professional xor san'ati rivojlanishiga zamin yaratgandir desam aslo xato bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda musiqa amaliyotimizdagi xor ijrochi, ko'p ovozli xorlar O'zbekistonga o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab kirib keldi. Badiiy havaskorlik san'atiga e'tiborni kuchaytirish bilan turli raqs, xor, orkestr, ansambllar keng ravishda tuzula boshlandi. Ular sekin asta maktab maorif tizimiga ham kirib keladi. Hozirgi kunda xor san'ati eng ommaviy san'at turlaridan bo'lib, umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarida ham yetakchi faoliyat sanaladi. Boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq u ko'pchilik ijrochilarni birlashtiradi. Musiqa darslaridagi qo'shiq kuylash faoliyatida o'quvchilarni yalpi qamrab oladi. Xor bo'lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa ta'limida xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarda vokal kuylash malakalari, ansambllik, soz intonatsiya, diksiya kabi eng muhim amaliy ijrochilik sifatlarini shakllantirishda juda muhim vosita hisoblanadi. Xor ijrochiligi jarayonida olib boriladigan vocal-xor tarbiyasiga oid ishlar o'quvchilarning musiqa tinglash, uni idrok etish, eshitish, his qilish, g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash bilan bir qatorda musiqaning nazariy qoidalari bilan amaliy tarzda tanishib borishlariga imkoniyat yaratadi,

ular da musiqiy-nazariy bilim va malakalarni shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi. Xor mashg'ulotlarida o'qituvchining musiqa asari, mualliflari, g'oyaviy badiiy mazmuni haqidagi suhbatlar, vokal-xor mashqlari va turli mavzu va janrdagi asarlarni kuylashlari orqali o'quvchilarni diqqat e'tibori, ongliligi, faolligi rivojlana boradi. Qo'shiq kuylaganda ijodiy-ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do'stona yaxlit jamoaga birlashadi.

Xor san'atida, umuman olganda maktab musiqa darslarida ham ishtirokchixonandalar jamoasi uchun musiqiy asar tanlash eng muhim shartlardan biridir. Asar mavzusi, janri, o'quvchilar ijrochilik imkoniyatlariga mosligi muhimdir.

Hozirgi vaqtda xor san'ati maktab musiqa darslarida yetakchi faoliyat bo'lib, maktabda sinfdan tashqari xor to'garaklari tashkil qilishiga ham e'tibor kuchayib bormoqda. Chunki xor to'garaklari ko'p sonli o'quvchilarni qamrab olish bilan ham alohida ajralib turadi. Musiqa darslarida esa bir sinf bir xor jamoasi hisoblanadi. Sinf kesimida yaxshi yo'lga qo'yilgan vokal-xor, ishlari, badiiy ijrochilik, ovoz jarangdorligi, qo'shiq aytish malakalarini egallash namunasidir. Musiqa darslarida o'quvchilarni qo'shiq kuylashga, jamoa bo'lib kuylashga o'rgatish yosh va musiqiy ijrochilik imkoniyatlarini aniqlash va nazariy jihatdan aniqlangan prinsip va metodlarga tayanib ish tutishini talab qiladi. Maxsus o'tkazilgan tadqiqotlar ham mashg'ulotlar tizimli asosda olib borilganda bolalar ovozini ashula aytishga monand qilib tarbiyalash mumkinligini, asarlarni badiiy ijrosiga erishishda muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yaratilishini tasdiqlaydi. Shuning uchun ham xor san'atini maktab musiqa darslaridagi o'rni va ahamiyatini oshirish borasida bugungi kunda bir qator ishlarning amalga oshirilayotganligi bejiz emas. Xususan Toshkent shahridagi bir qator umumta'lim maktablarida jumladan, 286-maktab (Sh. Shukurov xormeystr), 222-maktab (xormeystr G. Mansurova, N. Ibrohimovalar), 27-maktab (M. Dalchinko xor rahbari), Samarqand shahridagi 2-son maktabi (xormeystr Aramanova), Bekobod shahridagi 2-son maktab (xor rahbari A Kovtira) maxsus musiqa sinflari tashkil qilingan bo'lib,

ularda yetuk, malakali xormeystrlar jamoaviy ijrochilik o'quv-tarbiya ishlarini olib bormoqdalar.

Respublikamizda keyingi yillarda bolalar xor festivallarini o'tkazilishi ham an'anaga aylanib bormoqda. Bolalar xor musiqasining birinchi festivali 1989-yil Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Unda 20 dan ortiq maktab jamoalari qatnashdilar. Xor festivali, shuningdek "O'zbekiston- Vatanim manim", "Diyrim ohanglari", "Kelajak ovozi" kabi ko'rik tanlovlar O'zbekistondagi xor san'atining yangi yo'nalishlari, folklor-ansambli va xalq xor qo'shiqchiligining istiqbollarini belgilab berdi.

O'tkazilayotgan tadqiqotlar xor san'atini madaniy hayotimizda, eng asosiysi o'sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbatli, iymonli, e'tiqodli, sog'lom fikrlovchi ma'naviy yetuk shaxs sifatida ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda.

Ayniqsa mustaqillik yillarida yaratilgan ko'plab xor asarlari, shu jumladan bolalar ijrosi uchun mo'ljallab yozilgan qo'shiqlarda o'z ifodasini topgan milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining asosiy mohiyati safarbarlikka da'vat etuvchi g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishda xor san'atini o'rni alohida bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Bu o'rinda musiqa darslarida o'quv mashg'ulotlarining asosiy qismi xor bo'lib qo'shiq kuylash faoliyatiga ajratilishi va bu jarayonda o'quvchilarga atab yozilgan ko'plab qo'shiqlarni repertuarga kiritilganligi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabda o'quvchilarni jamoa bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish o'qituvchi zimmasidagi o'ta mas'uliyatli vazifalardan biridir. Endigina birinchi sinfga kelgan bolalarni qo'shiq kuylashga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat, pedagogik-psixologik yondoshuv hamda xor bilan ishlash, uni boshqarish malakalarini talab qiladi. Bu jarayonda o'quvchilarni kuylash paytida to'g'ri o'tirish, turish, to'g'ri nafas olish, uni sarflash, ohangdorlikni, musiqa kuyini his etish, toza, aniq tovush hosil qilish, tovushni yo'llash, tovushni toza intonatsiya (o'z balandligida) qilish, boshqa o'quvchilarni eshitib, o'z ovozini ularga tenglashtirib (ansamblga erishish) kuylash, so'zlarni burro va aniq talaffuz qilish, ritmni his qilib kuylash va nihoyat

vokal kulashga urgatish murakkab va uzoq davom etuvchi ta'limiy – tarbiyaviy mashg'ulotlar izchilligini talab qiladi “musiqa madaniyati” fani o'quv dasturi talablariga ko'ra o'quvchilar 2-sinfning yarmidan ikki ovozli kuylashga utishi, 3-4-sinflarda to'liq ikki ovozda kuylash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari jo'rsiz asarlar kuylashlari belgilangan.

Jo'rsiz kuylash o'zining bir qator xususiyatlari bilan xonandalardan ma'lum tayyorgarlik va kuylash malakalariga ega bo'lishni talab qiladi. Albatta jo'rsiz kuylashga unison kuylashga erishishga nisbatan davomli va maqsadga qaratilgan mehnat talab qiladi. Taniqli xormeystr V.S.Popov shunday yozadi “bolalar xorida ko'p ovozli kuylashga o'rgatishni biz juda muhim deb hisoblaymiz. Ko'p ovozli kuylash o'z navbatida o'quvchilarni jo'rsiz kuylashga tayyorlashda muhim bosqich vazifalarini o'taydi. Ko'p ovozliliksiz va jo'rsiz kuylashga erishmasdan musiqa tarbiyasi va xor ijrochiligi to'laqonli bo'lmaydi. Zotan, bu sabab ushbu sifatlari bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Ma'lumki bir ovozli kuylashda kuy (milodiya)ni eshitish qobiliyati rivojlanadi, xor bo'lib kuylashda kerak bo'lgan garmonik eshituv qobiliyati deyarli rivojlanmaydi, jo'rsiz kuylash esa xor ijrochiliginining eng nafis va jozibador (ko'proq xalq qo'shiqlari va lirik xarakterli bo'ladi) shakli bo'lib, bu jarayonda badiiy did, garmonik eshituv, ladni his etish, aniq intonatsiya, diksiyaga erishish kabi malakalarini faol rivojlanishiga erishiladi ”.

Pedagogik kuzatuvlarimiz esa umumta'lim maktablari musiqa darslarida qo'shiq kuylash mashg'ulotlari talab darajasida emasligi, xor bo'lib qo'shiq kuylash faqat bir ovozli (unison) kuylash bilan cheklanib qolayotganligi, bu o'rinda asosiy muammo musiqa o'qituvchilarini xor-dirijori(xor rahbari) sifatida kasbiy ko'nikma va malakalari ayniqsa ko'p ovozli asar bilan, jo'rsiz asarlar bilan ishlash amaliyotiga tayyorgarlik darajasi qoniqarli emasligidir. Shuning uchun biz ushbu tadqiqot ishimiz mazmunida musiqa o'qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab ta'limiga tayyorlashda ularni jo'rsiz asarlar bilan ishlashga tayyorlashning pedagogik, psixologik va metodik jihatlarini o'rganish, ilg'or tajribalarni tahlil

qilish, umumlashtirish va oliy ta'lim davridagi tahsil davomida talabalarda kutilgan darajada jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi tavsiyalarni ishlab chiqishga harakat qildik.

1.2. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlash muammolari.

Ma'lumki o'zbek qo'shiqchilik madaniyati o'zining rivojlanish an'analariga ko'ra asosan monodik (bir ovozli) o'zakda shakllanib kelgan. Tabiiyki, o'lkamizga Yevropa musiqa janrlari va ko'p ovozlilikka asoslangan shakllarni kirib kelishi natijasida o'zbek musiqasida ham bu janrlarni va ko'p ovozlilikni tadbiiq etilishi jahon xalqlari musiqa madaniyatidagi o'zaro bir-birini boyitish jarayonini natijasi sifatida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Tabiiyki yangi janr va shakllar, xususan, xor, orkestr, musiqali drama, simfoniya, oratoriya, operalarni paydo bo'lishi jahon xalqlarining zamonaviy musiqa madaniyatiga keng ravishda kirib borgan bu san'at turlarini bizning mamlakatimizda ham milliy musiqamizni o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'zlashtirilishiga erishildi.

Ko'p ovozli musiqa janri havaskorlik, professional jamoalar ijrosi bilan cheklanmasdan o'quv yurtlarida musiqa maktablari, o'rta umumta'lim maktablari musiqa amaliyotiga ham tadbiiq etildi. Maktablar, o'rta maxsus bilim yurtlari, oliy ta'lim (musiqa ta'limi ixtisosliklari bo'lgan) tizimida xor ijrochiligi o'quv rejalariga kiritildi va fan sifatida o'qitila boshlandi. Xor ijrochiligi ommaviy qo'shiqchilik san'ati sifatida maktab musiqa darslarida yetakchi faoliyatga aylandi. Bu esa o'z navbatida umumta'lim maktablari uchun maxsus musiqa o'qituvchilari tayyorlashni yo'lga qo'yilishiga olib keldi.

Oliy pedagogik ta'limda musiqa o'qituvchilarini maktab musiqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash musiqa san'atining bir necha yo'nalishlari bo'yicha bo'lgusi kadrlarda zarur bilim, ko'nikma, malakalarini egallashlarini taqazo etadi.

Bir soatlik dars jarayonidagi musiqa mashg'uloti o'qituvchidan musiqa nazariyasi, tarixi, solfedjio, vokal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, dirijiorlik va xor bilan ishlash bo'yicha malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi. Tabiyki, bu san'at yo'nalishlari bo'yicha yitarli darajada zarur nazariy va amaliy (cholg'u asbobida chalish, dirijorlik qilish, vokal – xor malakalari xor bilan ishlash) bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari bir xil darajada bo'lmaydi.

Bunga asosiy maqsadlardan biri hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari (pedagogik oliy o'quv yurtlari – universitetlar va institutlar nazarda tutilmoqda)ning “musiqiy ta'lim” iqtisodligiga kirib o'qiyotgan aksariyat ko'pchiligi (60% dan 90% gachasi) umumta'lim maktablarini tugatib, to'g'ridan-to'g'ri o'qishga kirganlardan iboratdir. Bunday talabalarni ko'pchiligi umumtalim maktablarida ham musiqa fani bo'yicha Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi bo'yicha kerakli bilimlarga va amaliy ijrochilikka ega bo'lmasligi oqibatida to'rt yillik tahsil mobaynida musiqa bo'yicha bazaviy-tayanch tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalarni maktab musiqa ta'limini amaliyotiga to'liq javob beradigan darajada tayyorlash keskin muammoligicha qolib kelmoqda. Ikkinchidan, oliy o'quv yurtlari “musuqa talimi” yo'nalishi o'quv rejasida “xor va xorshunoslik asoslari va xor-dirijorligi” o'quv predmetlari aynan talabalarni xor dirijorligi faoliyatiga (yani xor raxbari, xor jamoasi bilan ishlay oladigan) tayyorlash maqsadini ko'zda tutgan bo'lsa-da, aytaylik “xor va xorshunoslik asoslari” fani bo'yicha o'quv amaliyotlari asosan fan dasturi bo'yicha asarlar kuylash, vokal-xor malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bilan cheklanib, bu jarayonda talabalarni musiqiy ravishda xor jamoasi bilan ishlash (xorga asar o'rgatish, xorga dirijorlik qilish), xususan bizning tadqiqotimiz muammosiga tegishli bo'lgan asarlar bilan ishlashi uchun imkoniyat, vaqt, pedagogik shart sharoitlar yaratilgan. Vaholanki talabalarning xor bo'lib kuylash, vokal xor malakalarini egallashlari bilan xor jamoasi bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikma va malaka, ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishlari muayyan pedagogik talab va mezonlar asosida ish yuritishni taqazo etadi. Xuddi shuningdek “dirijorlik” mashg'ulotlari jarayonida

talaba bir yil davomida 6, 8ta asarda (shundan 2tasi “jo’rsiz”, “a’kapella” bo’lishi mumkin) dirijorlik qilishni o’rganadi. Dirijorlik qilish davomida asarni partiturasini, ovoz partiyalarini fortepianoda chalishni, ularni ovoz yo’li (melodiyasi) yoddan kuylash, nazariy jihatdan tahlil qilish kabi bilim va malakalarni ham o’zlashtirishadi va tabiiyki bularning hammasi ham talabani xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlashda o’ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayonni ham jiddiy e’tiborga molik “kamchilik”lari shundan iboratki, hozirgi vaqtda “dirijorlik” mashg’ulotlari “yakka tartibda” emas balki, guruh holida o’yilmoqda va bu o’z navbatida ushbu fanni o’qitilishida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumldan:

-bir guruhda o’qiyotgan talabalarni musiqiy mashg’ulotlari (kimdir musiqa maktabida o’qigan, kimdir san’at kollejida, kimdir pedagogika kollejarini musiqa bo’limida, kimdir umumta’lim maktablarini bitirib o’qishga kirgan) hamda musiqiy qobiliyatlari (musiqiy eshituvi, amaliy ijrochiligi, ovoz imkoniyatlari va hokazo) turlicha bo’lganliklari uchun ular uchun alohida- alohida asar berib ishlash imkoniyatini yo’qligi;

-ma’lumki musiqa pedagogikasi va metodikasi dirijorlik sinfi mashg’ulotlarida har bir talabani musiqiy ma’lumoti, qobiliyati, qiziqishi, tayyorgarlik darajasiga qarab asar tanlash va individual talablar qo’yish lozimligini uqtiradi. Guruh holidagi mashg’ulotlarda esa tabiiyki bunday ish tutib bo’lmaydi. Natijada bunday holat nisbatan yuqori malaka, qobiliyat, bilimga ega bo’lgan talaba o’z darajasidan past asar bilan, ishlashga, aksincha muhim bo’lmagan, bilimi qobilyati nisbatan past bo’lgan talabani asarni yetarli darajada o’zlashtira olmasligiga olib keladi.

-dirijorlik darsida ham asosiy talabani berilgan asarlarni dirijorlik qilish tamoyillariga ko’ra o’zlashtirishlariga qaratiladi. Talaba bu mashg’ulotlarda turli o’lchov, janr,turli xor turlariga yozilgan turli darajadagi asarlarga shu jumladan jo’rsiz (a’ kapella) asarlarga ham dirijorlik qiladi. (a’ kapella asarni to’liq fortepianoda chaladi, ovoz partiyalarini yod oladi, asarni nazariy tahlil qiladi va

hokazo). Afsuski bular ham talabani jo'rsiz yoki har qanday xor asari bilan ishlash bo'yicha yetarli darajada amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlari uchun kerakli darajadagi imkoniyatni beraolmaydi.

- va nihoyat xor asarini kuylash, xor asariga dirijorlik qilish bilan xor asari bilan ishlashning (ya'ni xor jamoasiga, aytaylik bolalar xoriga, maktab musiqa darsida xor jamoasiga) o'ziga xos farqli va e'tibor talab jihatlari mavjud. Xor bilan ishlashda xor rahbarining asarni mustaqil o'rganish, partituraning, vokal partiyalarni yod olish, dirijorlik sxemalarini mukammal o'zlashtirishi, asar xarakteri, tempi, o'lchovi, lad- tonalligi, dinamikasi, xorni boshqarishga ruhiy va amaliy tayyor bo'lishi, o'ziga ishonchi, xor jamoasining xususiy va umumiy ansambl sadosini eshita bilishi, bu komponentlar asosan amaliy ishlash jarayonida asta-sekinlik bilan shakllanadigan jihatlardir.

Ushbu muammolarni ta'kidlash barobarida yana shu jihatlarga ham to'xtalib o'tishni, ya'ni jo'rsiz xor ijrochiligining o'ziga xos murakkablik va ijrochilik bilan amaliy xususiyatlari haqida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tishni lozim topdik. Xorshunoslik fanining hamda xor ijrochiligi bo'yicha ulkan yutuqlarga erishgan xor-dirijorlari va xor rahbarlarining uqtirishicha har qanday xor jamoasi bilan ishlash (xor jamoasiga xor o'rgatish yoki xor jamoasini xor bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish) malakalarini egallashlarida xor rahbarining (maktabda musiqa o'qituvchisining, chunki musiqa darsining jamoaviy ijrochilik faoliyatida musiqa o'qituvchisi xor-dirijori sanaladi) eng birinchi navbatda ko'p ovozli asar bilan ishlash, ko'p ovozli xor ijrosini yo'lga qo'yish, boshqarish, ishtirokchilarni ko'p ovozli kuylashga o'rgatish borasidagi bilim, malakalari va orttirgan tajribalari asosiy rol o'ynaydi. Ko'p ovozlilikni his etish, ijro paytida ovoz ohang yo'li, har bir partiyani yagona tonallikka sozlanishi, ansambllikni hosil qilishi (garmonik, milodik, temp) sof intonatsiya, aniq va toza diksiya, vokal-tovush hosil qilish, uni yo'llash, legato kuylash, stakatto, popligato, morkato kuylash, dirijorlik ishoralarini tushunib asar xarakterini ovozda ifoda etib kuylash kabi elementlar asosan ko'p ovozli kuylash yoki ko'p ovozli asar bilan ishlash jarayonida

shakllanib boradi. Bunday ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan xor rahbari "jo'rsiz" (a' kapella) bilan ham qiynalmasdan ishlab keta oladi, ya'ni jo'rsiz asarlarni xor jamoasiga o'rgata oladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xor bilan ishlash, xususan jo'rsiz asarlar bilan ishlash amaliyotiga tayyorlashda eng avvalo ularda ko'p ovozli kuylash, ko'p ovozli asarlarga dirijorlik qilish va amaliyotda xor jamoasiga o'rgatishlarni shakllantirishning dastlabki bosqichida talabalarni o'zbek xalq qo'shiqchilik san'atidagi ko'pchilik bo'lib aytiladigan qo'shiqchilik an'analari bilan tanishtirib borish yaxshi natija beradi. Shundan so'ng bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar uchun yozilgan kompazitorlarning kichik hajmli asarlarini o'rganish, xalq qo'shiqlarining band (yakkaxon ashulachi tomonidan kuylanishi), naqorat(ko'pchilikning jo'r bo'lib kuylashi)li namunalari yoki qarsak jo'rligida (cholg'u jo'rligisiz) aytiladigan namunalarni eshitish ulardan ko'p ovozlilik elementlarini idrok etishlariga erishish muhim qadamlardan hisoblanadi.

O'zbekistonda xor ijrochiligi, xususan bolalar xori ijrochiligida ko'p ovozli kuylashga o'rgatish haqida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan o'tgan asrning 70-yillarida umumta'lim maktablari o'quvchilarini ko'p ovozli kuylashga o'rgatish muammolariga doir O.P.Sokolova va A.I.Yevgeyevlar maxsus tadqiqot ishlari olib borishgan. Ularning tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinflarda unisondan ikki ovozli(ikkinchi sinf), uch ovozlilikka (uchinchi sinf) o'tish, ikkinchi sinf ikkinchi yarmidan boshlab ko'p ovozlilikning murakkab bo'lmagan shakllarini(kanonlar, tersiyali ikki ovozlilik) o'zlashtirish va 4-5-sinflardan ma'lum retmik usul yoki og'izda usul berib (bum-bak, baka- bum), ikkinchi ovoz tersiya, kvarta, kventa oralig'ida qo'shiq kuylashga (jo'rsiz kuylash bosqichiga o'tishning ikki davri) o'tish yaxshi natija beradi.

O.P.Sokolovanning izlanishlarida asosiy e'tibor kichik maktab yoshidagilarga oid unison va garmonik eshituvning (idrokning) rivojlanishiga, ikki ovozli kuylashning dastlabki malakalarini hosil qilishga qaratiladi. O'quvchilarni ikki ovozli xor kuylashga o'rgatishning boshlanishida O.P.Sokolovanning jo'rovoqlikda

(akampanimentda) melodiya takrorlanmaydigan bir ovozli ijro usulini, o'quvchining sinf bilan duet bo'lib kuylashini va ikki ovozlik shartlariga mos keladigan boshqa usullarni alohida ko'rsatib o'tadi. O'rgatishning boshlang'ich davrida parallel emas, balki, ikki kontras harakat qiluvchi ovoz yo'liga ega bo'lgan qo'shiqlarni muhimligini va asta-sekin bir ovoz ma'lum pardada tovushni cho'zib turib, ikki ovoz shu pardadan pastga yoki yuqoriga melodiyaning musiqa jo'rligisiz kuylashi, bunday mashqlarni turli variantlarini qo'llash bilan jo'siz kuylashga erishish mumkinligini asoslab beradi. A.A.Lukani o'zining "Maktabda ikki ovozli kuylashning boshlanishi" degan kitobida parallel harakat qiluvchi tovushga ega bo'lgan ko'povozlilikni xalq qo'shiqchilik an'analari bilan bog'laydi.

Zamonaviy musiqa tarbiyasi tizimida ham parallel ovoz yo'li o'quvchilarning ko'p ovozlilikni oson o'zlashtirish metodi sifatida qo'llaniladi.

Maktab o'quvchilarini ko'p ovozli kuylashga va shu asosda o'rta bo'g'inlarda (5-7-sinflarda) jo'rsiz kuylashga o'tishlari va bu o'rinda musiqa o'qituvchisining o'zi bu faoliyatga tayyor bo'lishi lozimligi va uning ilmiy pedagogik asoslari oliy ta'lim misolida respublikamizda yetarlicha tadqiq etilmagan. Shunday vaziyatda maktab o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar, ilmiy-tadqiqotlar ish shakli va usullaridan bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktab faoliyatida jo'rsiz asarlar bilan ishlash amaliyotiga tayyorlash maqsadida ijodiy foydalanish eng maqbul yo'ldir.

Maktabda musiqa tarbiyasiga oid erishilgan ilg'or nazari va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, xor bo'lib kuylashga o'rgatishda o'quvchi-yoshlarning ko'p ovozli kuylash malakalarini shakllantirish ishlarini aslo kechiktirmaslik zarur. Asardagi ikki va undan ziyod ovoz uning murakkabligini ko'rsatmaydi. Zotan bir ovozli kuylarning ijrosi, ikki-uchovozlikka nisbatan ham ancha murakkab bo'lishi mumkin.

Agar biz xor ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, u dastlab cherkov qo'shiqchiligi asosida paydo bo'lganligini va kuylash ham musiqa jo'rligisiz a'kapella tarzda bo'lganligini bilib olamiz. O'rta asrlarda katolik cherkovida xor

joylashgan yerni kapela deb yuritishgan. Kapella lotincha soʻz boʻlib xor jamoasi degan maʼnoni bildiradi. Kapella ijrosi uchun yozilgan asarlar aʼkapella deb nomlanib, oʻsha davrda xor ijrochiligi asosi hisoblangan. Joʻrsiz-aʼkapella uslubida kuylash madaniyatiga ega boʻlgan professional va havaskorlik xorlari kapella deb, xor rahbarlari esa kapelmeyster deb yuritilgan.

Xor soʻzi qadimgi grek tilidan “xoros” soʻzidan olingan boʻlib, u “yigʻilish”, “majlis”, “toʻda” maʼnolarini anglatadi. Vaqt oʻtishi bilan jamoa boʻlib kuylovchilarni ham xor jamoasi, xorda kuylashni – xor ijrochiligi deb atash odat tusiga kirib kelgan.

Xor ijodiy uyushgan jamoa boʻlib, u maʼlum ovozga ega boʻlgan ijrochi-xonandalardan tashkil topadi. Uning xarakterli belgilaridan biri bu xorda individual (yakka) tembrlarning qoʻshilishidan hosil boʻladigan oʻziga xos (spetsifik) tembrdir.

Tub maʼnodagi xor jamoasi dastlab qadimgi Gretsiyada paydo boʻlgan. Uning insonning psixologiyasiga kuchli taʼsirini sezgan cherkov xodimlari undan tarbiyaviy va diniy gʻoyalarni targʻib qilish maqsadida cherkovlarda xor boʻlib kuylashni joriy etishgan. Xor asta-sekin rivojlanib cherkovda oʻtkaziladigan turli tadbirlarda ijro etila boshlagan.

Xor sanʼatining insonlar ongiga kuchli taʼsir etishini anglab yetgan cherkov xodimlari qadimgi Rusda ham xor jamoasini oʻz katoligi va poplaridan tashkil qilish mumkinligini sezgan holda Kiyev shahridagi Vladimirovskiy cherkovida ham shunday xor tashkil qilishgan. Shu tariqa xor cherkovda kuchli, insonlar ruhiyatiga taʼsir etuvchi kuchga aylangan.

Moskva Rusi davrida birinchi marta professional xor jamoasi tashkil qilingan. Shu davrda oʻziga xos nota yozuvlari ham paydo boʻlgan. Xor jamoalari ishtirokchilari “знаменной пость” uslubida kuylaydigan boʻlishgan. Butun soʻzning ust tomoniga turli znamenlar (belgilar) u oʻziga xos maʼlum balandliklarni koʻrsatuvchi nota vazifasini oʻtagan. Shu tariqa xor madaniyati rivoj topib koʻp ovozlilikka asoslangan uslub shakllangan.

O'zbekistonda xor san'ati asosan o'tgan asr birinchi yarmidan shakllandi. Hozirgi kunda bu san'at umummusiqa madaniyatimizning eng muhim bo'lagi hisoblanadi. Respublikamizda juda ko'plab professional, havaskorlik o'quv xorlari mavjud. Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarining jamoa bo'lib qo'shiq kuylash faoliyati xor san'ati ijrochiligiga asoslangan bo'lib ushbu san'at turini boshlang'ich asosi bo'lib xizmat qiladi. Maktab o'quvchilarini pedagogik ta'lim jarayonida ushbu faoliyatga tayyorlash bugungi kundagi musiqiy ta'lim-tarbiya oldida turgan eng muhim vazifalardandir.

Ushbu bob bo'yicha tadqiqot mavzusiga oid nazariy mashg'ulotlar tahlili va xulosalar shundan iboratki, musiqiy ta'lim-tarbiya mazmunida xor bo'lib qo'shiq kuylash eng qulay, ommaviy ya'ni o'quvchilarni qamrab oluvchi san'at turi bo'lib xor ijrosi uchun yozilgan asarlar yoshlarni ma'naviy, ma'rifiy estetik ruhda tarbiyalashda kuchli ta'sirchanlik kasb etadi. Bugungi kunda umumta'lim maktab musiqa o'qituvchilarini xor dirijorligiga tayyorlash dolzarb vazifalardan bo'lib, maktab musiqa darslarini yuqori sifat va samaradorlik kasb etishida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor ijrochiligi amaliy faoliyatiga tayyorgarlik darajasi yetakchi omil hisoblanadi.

II BOB: PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURLARIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI XOR DIRIJORLIGI FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI.

2.1. Xor ijrochiligida jo'rsiz kuylash yuqori malakaviy tayyorgarlik omili.

O'zbekistonda professional xor ijrochiligining rivojlanishi va unda ko'p ovozlilikning yirik va murakkab janrlarda xalqchilik, milliylik ko'rinishini olishi juda murakkab va jiddiy izlanishlar ostida kechdi. Tabiiyki bu jarayonda ko'povozlilik xor san'atida a'kapella ijrochiligini ham joriy etilishi, uning ham milliy negizda shakllanishi, zamonaviy musiqa madaniyatimizda o'z o'rniga ega bo'lishligini taqazo etardi.

O'tgan asrning 1-yarmida xalq orasidan chiqqan va professional musiqachilar keng miqiyosda ish olib bordilar. Ta'lim muassasalarida ilk bora Yevropa musiqa uslubida xor asarlarini kuylash kabi ishlar sinovdan o'tkazildi. Bu o'rinda o'zbek xalq musiqachilari-bastakorlar, hofizlar, sozandalarning rus kompazitorlari bilan muloqatlari juda samarali bo'ldi. Jumladan, dastlabki o'zbek xor asarlarini vujudga kelishida rus kompazitorlarining o'zbek kuy-qo'shiqlarini (turli ijrochilar tarkibi uchun) qayta ishlab shu asosda ko'povozlili va jo'rsiz xor asarlarini yaratishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xor qo'shiqlari bu davrda yaratilgan musiqali-drama, syuitalarda paydo bo'ldi. M.M. Ivanovning "O'zbekistonning muzika lavhalari" (1931), A.F. Kazlovskiyning "Lola" syuitasi (1937), R.M.Glierning orkestr ucun "Farg'ona bayrami", shuningdek R.M.Glierning (T.Sodiqov va T.Jalilov bilan hamkorlikda) "Gulsara", V.A.Uspenskiyning (Sh.Shoumarov va G.Mushel bilan birgalikda) "Farhod va Shirin" (1937) musiqali dramalarini shunday asarlar hisobiga kiritish mumkin.

Bu asarlar 1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan O'zbek adabiyoti va san'ati birinchi Dekadasida katta muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan.

O'zbek musiqasida kompozitorlik ijodiyotining vujudga kelishi va rivojlanishida V.A.Uspenskiyning, Y.Y.Romanovskaya, N.N.Meronov, A.F.Kazlovskiy, R.M.Glier, S.Vasilenko, G.Mushel kabi taniqli rus musiqa madaniyati arboblarning arboblarning xizmatlari katta bo'ldi. Bu davrda nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo respublikalarida Yevropa madaniyatiga xos professional ijro janrlari keng rivojlandi. Yevropa uslubidagi birinchi musiqa-o'quv yurtlari tashkil etildi. Ular o'zbek xalq musiqasining o'ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda birinchi ko'povozli (polifonik va garmonik tizimidagi) simfonik xor va kamer asarlarini yaratdilar.

Bu davrda umumta'lim maktablarida musiqa darsi o'tilmas edi. O'qituvchi kadrlar yetishmaganligi, o'quv metodik qo'llanmalarining bo'lmaganligi sabab maktab ta'limiga musiqa darssini kiritish katta qiyinchilik bilan amalga oshirildi. Shu yillarda o'zbek maktabi sharoitiga mos keladigan Yevropa tipidagi dastur va musiqa darslari davr talabi bilan yangi amaliy turlarini keltirib chiqardi. 20-30-yillarning boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qo'qon kabi shaharlarda musiqa mashg'ulotlarining "Sharqiy" deb nom olgan turi keng tarqaldi. O'quvchilar musiqa sadolariga monand qadam tashlab (marsh) qo'shiqlarni xor bo'lib kuylashardi.

Musiqa-pedagogikasining bir qator ilg'or namoyondalari, O'zbekiston madaniyati va san'at arboblari, kompozitorlari bolalar va o'smirlar o'rtasida musiqa maorifini mazmuni va imkoniyatlarini kengaytirishga munosib hissalarini qo'shdilar. 1933-yilda Y.Y.Romanovskaya va I.Akbarovning boshlang'ich sinf va o'rta maktab musiqa o'qituvchilari uchun "nota savodi" metodik qo'llanmasini chop ettirdilar. Shu yillarda bolalar uchun "30 ashula"(1935), "Bolalar uchun qo'shiqlar"(1942), "Bolalar qo'shiqlari"(1948), kabi birinchi milliy qo'shiqlar to'plamlari nashr etildi.

Bu yillardagi qo'shiq kuylash ustida olib borilgan ishlar asosan birovozlilik bilan cheklangan. O'quvchilarni ko'p ovozli va jo'rsiz kuylashga o'rgatish tajribasi va metodikasi hali yetarli shakllanmagan ta'bir joiz bo'lsa, yo'q darajada edi.

Ammo, katta yoshdagilarning aralash xor jamoalari bilan ishlagan o'zbek musiqachilari milliy xor san'ati uchun yangi bo'lgan ko'povazlilik shakllari ustida ijodiy izlanishlar olib bordilar.

Xor ijrochiligi endigina shakllanayotgan bu davrda taniqli bastakor To'xtasin Jalilov o'zining Toshkent musiqali teatr xor jamoasi bilan ostinat-ritmik ko'povozlilikning o'ziga xos shakllarini muvaffaqiyatli ravishda sinovdan o'tkazdi. Bunda yuqori ovozlarga asosiy kuy, past ovozlarga esa ritmik ostinatli usullarni ijro etish topshirildi. Bu tajriba ta'sirida professional kompazitorlar M.Ashrafiy, T.Sodiqov, M.Burxonov, S.Yudakov, M.Leviyev va boshqalar o'zlarining xor va simfonik asarlarida ko'povozlilikda fon bo'lib xizmat qiluvchi usullar yetakchi o'rin egallaydi. O'zbek kompazitorlari bu bilan cheklanmasdan yangi garmonik shakllar topishda jadal izlanishlar olib borishdi. Ular o'zbek ohangi xususiyatlarini ravshan ifodalab beruvchi garmonik birikmalarni topishga harakat qildilar.

30-yillarning oxiri 40-yillarning boshlarida rus kompazitorlari bilan hamkorlikda yozilgan ilk o'zbek operalari dunyoga keldi. M.Ashrafiy va S.Vasilenkning "Bo'ron"(1939), G.M.Gliyer va T.Sodiqovning "Layli va Majnun" (1940) operalaridir. Ushbu operalarda xor musiqasi yetakchi o'rinni egallagan holda, ularda milliy-vokal xorning ko'povozlilik va jo'rsiz uslubi keng qo'llanildi.

O'tgan asrning 40-60 yillarida o'zbek kompozitorlari ijodida vokal-xor musiqasi yetakchi o'rinni egallaydi. Shu yillarda M.Burxonovning, M.Leviyev, S.Yudakovning ko'p syuita, kantata, kantata-oratoriya asarlari yaratildi.

M.Burxonovning yorqin milliy jo'rsiz asarlari o'zbek vokal-xor san'ati rivojida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asarlar o'sha vaqtda Butunittifoq miqiyosida keng shuhrat qozondi. Ular tom ma'nodagi o'zbek milliy jo'rsiz xor ijrosining ilk yetuk namunalari sifatida alohida qiziqish uyg'otishi bilan birgalikda an'anaviy o'zbek monodiyasi va ko'povozlilik sintezi mumkin ekanligini isbotladi.

“Respublika maktab dasturlarida, tabiiyki O‘zbekistonda ko‘p ovozli xor (M.Burxonov xorlari) tug‘ilishi kabi dalillar o‘z ifodasini topishi kerak” deb ta’kidlagan edi D.B.Kobalovskiy.

Bu janrda kiyinchalik I.Akbarov, S.Boboyev, M.Nasimov, B.Umidjonov, M.Vafoyevlar samarali mehnat qildilar. Ularning ayniqsa jo‘rsiz xor asarlarida xalq an‘analari yangicha talqin etildi. Shunday qilib O‘zbek xor san‘atida yangi “jo‘rsiz” (a‘kapella) ijrochilik shakli hosil bo‘ldiki, uning o‘ziga xos xususiyati keng hajmli va to‘liq jaranglovchi xor ijrosida milliy koloretini to‘la namoyon etadi.

Toshkent Konservatoriyasining professori, Xor dirijorligi kafedrasining mudiri E.A.Gudkova o‘zbek kompazitorlarining yirik shakldagi xor asarlari o‘zining “O‘zbek xor adabiyoti” to‘plamida (1976)tahlil qilib shunday yozadi: “o‘zbek kompazitorlarining erishgan muayyan yutuqlari shundaki, ular topa bilgan yangi bo‘yoq va milliylik garmonik-funksional vositalarda namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay, xor san‘atini to‘g‘ri yo‘lda deyish mumkin:.

O‘zbekiston xalq artisti B.Umidjonov tashabbusi bilan tashkil etilgan (1961) O‘zbekiston radiosi va televideniya sinfining Milliy xor jamoasi faoliyatida “jo‘rsiz” xor asarlari asosiy o‘rinni egallaydi va uning repertuarida B.Umidjonov tomonidan jo‘rsiz xor uchun moslashtirilgan (qayta ishlangan) o‘zbek va O‘rta Osiyo xalqlari folklor asarlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu xor jamoasining ijro mahorati va B.Umidjonov tomonidan qayta ishlangan asarlar (a‘kapella) O‘zbekistonda vujudga kelgan va faoliyat yuritayotgan juda ko‘plab havaskorlik va o‘quv yurtlari xor jamoalari repertuarini shakllanishiga ijobiy ta‘sir etdi. Jamoaning 1983 yil Taylanda bo‘lib o‘tgan xor jamoalari festivalidagi ishtiroki va konsert keng jamoatchilik va professional ijodkor-kompozitorlar tomonidan yuqori baholandi.

Ma‘lumki, havaskor va professional xor dirijorlari tayyorlashda madaniyat va san‘at instituti va konservatoriya tayanch ta‘lim muassasasi hisoblanadi. Maktab musiqa o‘qituvchilari esa maktab havaskorlik xor jamoalarini tashkil qilish, ular bilan ishlash, eng muhimi sinf xor jamoasini, (sinfda qo‘shiq kuylash faoliyatida

o'quvchilar bitta xor jamoasi sifatida xor bo'lib kuylashadilar.) xor dirijori, xor rahbari sifatida boshqaradilar. Bu esa ulardan xor jamoasini tashkil etish, sinf xor jamoasi bilan ishlash (bolalarni vokal-kuylash malakalarini, sof unison kuylash, soz, ansambllikni his etib, dirijorlik qoidalariga rioya qilib kuylash), o'quvchilarni ikki ovozli, ko'p ovozli va jo'rsiz kuylashga o'rgatish, bolalar xor jamoasini turli ko'rik-tanlov, festival va bayram konsertlariga tayyorlash malaka va ko'nikmalariga ham nazariy ham amaliy jihatdan ma'lum darajada tayyor bo'lishlarini taqozo etadi.

Pedagogik tahlillar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki umumta'lim maktablarida xor bo'lib qo'shiq kuylash aksariyat ko'pchilik hollarda bir ovozlilik kuylash bilan cheklanib qolmoqda. Bunga sabab musiqa o'qituvchilarini (pedagogika oliy o'quv yurtlarining "musiqiy ta'lim" ixtisosligini bitirganlar) xor bilan ishlash amaliyotiga yetarli darajada tayyor emasliklarida, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak ularni oliy ta'lim tahsili davrida xor jamoasi bilan ishlash jarayonida ko'p ovozli va jo'rsiz kuylash faoliyatiga tayyorlash darajasi, sifati, ko'ngildagidek emasligidir.

Muammoni sabablari va uning yechimi borasidagi tadqiqiy izlanishlarimiz davomida biz ko'pgina musiqa o'qituvchilari, xor-dirijorligi mutaxassis pedagoglar (pedagogika oliy o'quv yurtlarida shu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan) va xor jamoalari rahbarlari (professional xor rahbarlari-xormeystrlar) bilan suhbatlashdik, savol-javob va anketa so'rovlari o'tkazdik. Bildirilgan javoblar fikr-mulohazalar, xulosalar bu o'rinada bir qator muammolariga to'xtalib o'tamiz:

1. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining "musiqiy ta'lim" yo'nalishida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab amaliyotiga xususan xor dirijorligi bo'yicha tayyorlash-birinchi navbatda talabalarni xor ijrochiligi nazariyasi bo'yicha zarur bilimlar bilan qurollantirishni talab qiladi. Zero xor san'atining o'ziga xos nazariy qonunlari, bu jarayonda ish olib boradigan xor rahbari muhim vokal-xor malakalari, xor ijrosining elementlarini o'zlashtirmasdan turib xor-dirijori sifatida o'zini namoyon qila olmaydi.

2. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining "musiqiy ta'lim" yo'nalishi o'quv rejasiga ko'ra bo'lg'usi musiqa o'qituvchilari xor ijrochiligi yo'nalishida "Xor va xorshunoslik asoslari" va "dirijorlik" o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida zarur bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga to'g'ri keladi. Ushbu fanlar amaliy fanlar shaklida o'tilishi bois talabalar xor ijrosini (tashkil qilish, boshqarish, xor bilan ishlashda uning eng muhim elementlarini nazarda tutgan holda yondoshish) nazariy masalalarini yetarli darajada egallash imkoniyati yo'qoladi. Pedagogikaning eng muhim qonuni bo'lmish nazariyani amaliyot bilan bo'g'liqlik tamoyiliga amal qilinmasligi bu talabaning kelgusi amaliy faoliyatida eng katta salbiy omillardan sanaladi. Xor san'atining eng muhim masalalarini o'rganuvchi fan "Xor va xorshunoslik" fani bo'lib, u o'tgan asrning 60-90 yillarida musiqa ta'limi o'quv rejasida (Pedagogika oliy o'quv yurtlari) alohida fan sifatida o'rganilardi. Hozirgi vaqtda bu fan "xor sinfi" fani bilan birlashtirilib, umumiy nomad "Xor va xorshunoslik asoslari" deb nomlanadi va fan uchun ajratilgan o'quv soatlari faqatgina amaliy mashg'ulotlardan iborat.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pchilik mutaxassis xor-dirijorlari, pedagog-o'qituvchilarning ta'kidlashlaricha xor bilan ishlashga, shu jumladan bizning tadqiqotimizning bosh muammosi bo'lgan jo'rsiz kuylashga tayyorlash o'ta murakkab va yuqori malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi. Bu jarayonda ehg muhim quyidagi nazariy va amaliy bilim va malakalar hal qiluvchi rpl o'ynaydi:

- xor ijrochiligini tashkiliy tuzulish xususiyatlari haqidagi bilimlarni egallash;
- xor partiyalari ovoz xarakteristikasi (ovoz turlari, diapozonlari) haqidagi bilimlarga ega bo'lish;
- xor turlari, ularning ko'rinishi va ularning tarkibi haqida bilish;
- xor ijrosining asosiy badiiy-ifoda vositalari (jumlasini, dinamikasi, sezura, nafas, tembr, artikulyatsiya, ritm, temp, fermato, o'lchov kabilar) yaxshi bilish, ularni xor ijrochiligi amaliyotida qo'llay olish malakalariga ega bo'lish;

-xorning muhim elementlari-ansambllik, yaxshi sozga erishish, so'z talaffuzi, diksiya, ohang talaffuzi (intonatsiya), to'g'ri nafas olish, vokal tovush barpo qilish bo'yicha yetarli tayyorgarlik va malakasiga ega bo'lish;

-nafas, nafas olish turlari, nafasni ishlatish (zanjir usuli, og'izni yumib va ochib kuylash) holatlari bilan ishlay olish;

-ohangni (tovushni) yo'llash (legato, stakato, markato) usullaridan kuylash qoidalarini, yo'llarini yaxshi egallash;

-xor ishtirokchilarining ovozlari qo'shiq aytishga tayyorlash (ovoz sozlash mashqlari orqali xonandalar ovozini qo'shiq aytish) holatiga keltirish;

-xor ansambli turlarini (xususiy ansambi, umumiy ansambl, to'liq ansambllikni ta'minlovchi gorizantal intonatsiya), ovoz xarakteri (tembri), ovoz kuchining dinamikasi, tovushlar cho'zimi (ritm), harakat birligi (agogiko), talaffuz birligi (diksiya-orfoepiya) va boshqalarni xor ijrosidagi o'rni, ahamiyati va qo'llanish holatlarini yaxshi bilish;

-xor asari fakturasining tuzilishi bilan bog'liq ansambl turlari- unison va oktavali unison ansambli, akkord-garmonik asarlardagi xor ansambli, polifonik asarlardagi xor ansambli, xor va ansambl o'rtasidagi ansambl, xor, jo'r va solist o'rtasidagi ansambllik, ularni xarakterli jihatlari, xor ijrochiligi amaliyotidagi o'rni va ahamiyati haqidagi zarur bilim, tushuncha, malakalarga ega bo'lish;

-xor sozi, turlari (melodik (gorizantal)va garmonik (vertikal)) haqida soz ustida ishlash uslublari bo'yicha kerakli bilim va malakalarga ega bo'lish;

-xorga ton berish (yuqori pozitsiyada kuylash, interval va akkordlarni to'g'ri talaffuz qilish) asarni o'z tonligida (sozni ko'tarmay yoki pasaytirmay) ijro qilish uchun xorni jo'rsiz uslubda mahoratli kuylay olish malakalarini hosil qilish uslubida ishlash tajribasini egallash, xorga ton berish yo'llarini mukammal egallash;

Xorga ton berish dirijordan o'ziga xos mukammallikni talab qiladi. Asar tonalligiga sozlanish, interval va akkordlarni to'g'ri talaffuz qilish kabi mashaqqatlar evaziga a'kapella uslubida kuylashga erishiladi. Xor ijrochiligiga

kirishishda, asosan jo'rsiz asarlarni kuylashdan oldin xorga ton beriladi, ya'ni xor ishtirokchilari ijro qilinadigan asar lad-tonalligiga sozlanadi.

Demak xorga ton berish (xor ishtirokchilarini ba'zan xor partiyasini) ma'lum lad-tonalikka moslashtirish, har bir ovoz partiyasiga tonlikdagi tegishli tovush (parda) ni eshittirishni ko'zda tutadi.

Xor ijrochiligi amaliyotida odatda, a'kapella jo'rsiz xor asarlarini ijrosini boshlashdan oldin ton beriladi. Xorga ton berishda kamerton ("lya" yoki "do") yoki fortepiano cholg'usidan foydalaniladi. Ton berish jarayonida har bir xor partiyasi, har bir ijrochi ma'lum tonlikka moslashadi va usha tonlikdagi kerak bo'lgan tovushni ham anglab oladi. Natijada, ijro o'sha lad tonligida aniq boshlanadi.

Xor dirijori tonni shoshilmasdan aniq va ishonch bilan berishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bo'lg'usi xor-dirijorlarini tayyorlash jarayonida bu malaka ham pedagog-o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi talabani xorga ton berishga tayyorlab borishi kerak bo'ladi. Agar xor bilan ishlashda xususan "jo'rsiz" asar kuylashga kirishishda xor rahbari (o'quv dargohlarida o'qituvchi) xorga ton berishda shoshilsa va oz bo'lsada noaniqlikka yo'l qo'ysa xor ijrosi barqaror tonalikka ega bo'lmaydi. Soz, ansambllik, ijro sifati buziladi.

Xorga ton berish o'ta masuliyatli ish bo'lib, ziyraklik, maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Aytib o'tganimizdek buning uchun xor rahbari yoki musiqa o'qituvchisi xorga ton berish yo'llarini puxta egallagan bo'lishi lozim. Ba'zida turli asarlarni boshlashdan oldin ham xorga ton beriladi. Masalan ijro qilinadigan turli asar hechqanday muqaddimasiz bo'lib, xor va musiqa ijroni birga boshlashi mumkin. Xor ishtirokchilari xonandalar asar tonligiga sozlanmagani uchun ular kerak bo'lgan tovushlarga (asari boshlanadigan pardaga) darhol tusha olmaydilar. Shunday paytlarda jo'rli xorga ton beriladi.

Xorga ton berish turlari har xil bo'lsa ham (xor oldidan, xor orqasidan, har bir partiyaga yaqin kelib, alohida va hokazo) xor oldidan ton berish afzalroq.

Ton berish uchun “lya” yoki “do” kamertonidan yoki fortepiano cholg’usidan ijro qilinishi kerak bo’lgan a’kapella xorining tonikasi, tonallikning uch tovushligi (tersiya uch tovushligi) topiladi va to’liq tonik uchtovushlik tuziladi va xor partiyalariga kerakli tovushlar beriladi. Shu tariqa xor aynan shu tonlikka sozlanadi.

Masalan, “lya” tovushidan “do major” uch tovushligini berish uchun “lya” dan kichik tersiya yuqoriga “do” ga chiqiladi. “Do” tovushini tonika deb qabul qilib, pastga qarab to’liq tonik uch tovushlik ovozda yoki fortepianoda eshittiriladi.(Misol 1).

1-misol.

Minor tonligida ton berish uchun minor tonik uch tovushligini ovoz bilan aytish (yoki asbobda chalish) mumkin. (Misol 2).

2-misol.

Agar asar garmonik minor ladida yozilgan bo’lsa, xorni quyidagicha sozlash mumkin: (3-4 misollar).

3-misol.

4-misol.

Masalan, M.Burxonovning jo’rsiz xor uchun qayta ishlagan “Sari kuhi baland” (Pomir xalq qo’shig’i) asari garmonik “si-bemol” minor tonligida

yoziqan. Xorni ushbu garmonik minor tonligiga sozlash uchun avval “lya” tovushidan “si-bemol” tovushiga yarim ton ko’tarilamiz. “Si-bemol” xayolan tonika deb qabul qilinadi va pastga qarab “si-bemol”- “fa”- “re-bemol”-“si-bemol”(kichik oktava) tovushlarini, keyin asosiy kuyning bir bo’lakchasini chalish yoki aytish ham mumkin.

Asar tonikadan boshlanmay, dominanta yoki boshqa tovush bosqich tovushlaridan boshlangan vaqtda ham xor dirijori albatta, xorga avval tonik uch tovushlikni, keyin esa dominant (yoki boshqa tovush bosqich) uch tovushligini to’liq eshittirishi kerak bo’ladi. (5-6 misollar)

5-misol.

Major tonligi

6-misol.

Ijro qilinadigan asar solist bilan boshlansa, keyin xor ijroga qo’shilsa, bunday holda yakkaxonga faqat boshlovchi tonning o’zinigina eshittirish noto’g’ri bo’ladi. Yakkaxon tonlikdan chiqib ketmasligi, balki ladni sezishi uchun to’liq tonik uch tovushlik beriladi. Shu bilan birga xorga ham eshittiriladi.

D-dur.

SOLOVUSHKA.

Misol:

Xorga ton berish jo'rsiz asarlar kuylashda, yoki jo'rsiz xor asarini o'rgatishda, asar ijrosini to'g'ri boshlashda eng muhim omillardan sanaladi. Buning uchun bo'lg'usi xor dirijori (o'qituvchi) tahsil davridan bu malakani puxta egallab borishi kerak bo'ladi. Buning uchun eng avvalo asarni turli tonlikda va major va minor tonligida to'g'ri kuylashni mashq qilib borish, so'ngra major va minor uch tovushlik ovozlari alohida-alohida, asosiy tonlikni eshitib (chalib) so'ngra musiqasiz kuylay olish, major va minor gammasi tovushlarini alohida kuylash, "lya" tovushidan eng qulay yaqin tonlik tovushini topish va tovush uch tovushligini topishni o'zlashtirish, ikki va uch tovush oralig'ini (intervallarini) xramatik tartibda kuylash, har xil interval, akkordlarni yoki kuy mashqlarni kichik-kichik bo'laklarini fortepiano (yoki boshqa cholg'u sozida) chalish va ovozda qaytarish kabilarni talab darajasida o'zlashtirishi kerak bo'ladi. Bu esa izchil va maqsadli mashqlar natijasida hosil bo'ladigan ko'nikmalar hisoblanadi va bo'lg'usi xor-dirijorlarini jo'rsiz asarlar bilan ishlash amaliyotiga tayyorlashda zarur va eng muhim kasbiy malakalar hisoblanadi.

Jo'rsiz asarlar ustida ishlash uslublari.

O'quv yurtlarida o'tiladigan dirijorlik kursining muhim vazifalaridan biri, talabalarning eshitish qobiliyatini o'stirish va rivojlantirishdan iborat. Bu masala asosan solfedjio, xor sinfi, xor partiturasini o'qish va ijro etish kabi darslarda o'z rejimini topadi. Shunga qaramay dirijorlik fani o'qituvchisi o'z talabasi bilan bu muammo ustida butun o'qish davomida (1-kursdan 4-kursgacha) uzluksiz ish olib borishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, eshitish qobiliyati musiqa sohasidagi barcha mutaxassisliklar uchun birdek zarur. Dirijorlik kasbi va mutaxassisligi uchun bu qobiliyat o'ta muhimdir. Xor dirijori toza eshitish qobiliyati bilan birgalikda vokal-xor malakalariga xos maxsus eshitish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari shart. Dirijorda vokal-xorni eshitish qobiliyatining mavjudligi bir vaqtning o'zida bir necha ovozni eshita olishi, ko'p ovozlarni bir vaqtda eshitishga

tez moslashishi, gorizontal yo'nalishdagi birorta ovoz yoki vertikal yo'nalishdagi ovozlarning vobastaligini tonlikdan salgina sirg'ansa ham darhol eshitib qabul qilish kabi imkoniyatlarni beradi.

Dirijor vokal-xorni eshitish qobiliyati yordamida xordagi har bir ovoz uchun o'ziga xos ijro go'zalligini topa oladi va ularni umumlashtirib o'zi xohlagan ijro go'zalligiga ega bo'lgan vokal ansambl tashkil etadi. Hozirgi davrda respublikamizda keng rivojlanib kelayotgan a'kapella (jo'rsiz) kuylash xor janri dirijorga va uning eshitish qobiliyatiga yana ham murakkab talablar qo'yadi.

2.2. Talabalarni jo'rsiz asarlar bilan ishlashga o'rgatishning o'ziga xos metodik imkoniyatlari.

Ishimizning oldingi qismlarida aytib o'tkanimizdek xor ijrochiligida "jo'rsiz" kuylash o'zining yuqori vokal-xor, dirijorlik va xor bilan ishlash bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarni talab qilish bilan ajralib turadi. Xor ijrochiligini sanati, ayniqsa xor-dirijorligi pedagogikasi va metodikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan pedagog olimlarning qayt etishlaricha jo'rsiz kuylashga erishish uchun xor jamoasining eng avvalo bir ovozli – sof unison kuylash, so'ngra ikki ovozli kuylash, ko'p ovozli kuylash bosqichlarini o'tashi lozim. Bu bosqichlarni muvaffaqiyatli o'tamasdan turib, a'kapella kuylashga kirishish ko'zlangan maqsadga erishish imkonini bermaydi. Xor san'atining o'ziga xos spetsifik xususiyatlari ham shuni taqazo qiladi. Zero, bir ovozli kuylash davrida ishtirokchilarning(maktabda o'quvchilar, xor tugaraklari, havaskorlik jamoalarida, xonandalar) xor bo'lib kuylashning eng muhim elementlarini egallashlariga erishiladi. Bu o'rinda musiqani eshitish, musiqaga sozlanish, ansambllikni his etish, vokal tovush hosil qilish, nafas olish uni to'g'ri sarflash, sof intonatsiyaga, diksiya talaffuziga erishish, dirijorlik ishoralariga amal qilib kuylashlari nazarda tutilmoqda.

Umumta'lim maktablarida birinchi sinfdan o'quvchilarni xor bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish, o'quvchilarni keyingi bosqichlarida ko'povozli va jo'rsiz kuylash malakalarini egallashlarida katta ahamiyatga egadir. Bir ovozli sof unison kuylashga erishish jarayonida ikki ovozlilikni his etish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Kuylarga jo'r bo'lish, o'quvchilar kuylayotganda o'qituvchining ikkinchi ovoz bo'lib qo'shilishi, unisondagi kuylarni (qo'shiq ovoz yo'lini) cholg'u asbobida so'ng fortepianoda chalib solishtirib ko'rish o'quvchilarda garmonik uquvni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Shuning uchun bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab amaliyotiga tayyorlashda ularni qo'shiq o'rgatish ya'ni xor bilan ishlash metodikasini yaxshi o'zlashtirishlariga e'tibor qaratish zarur. Bunda talabalarni xor jamoasi bilan ishlash, xorga qo'shiq o'rgatishning dastlabki uslublarini egallashlari haqida jiddiy o'ylashga to'g'ri keladi. Xorga qo'shiq o'rgatish jarayoniga talabani tayyorlashning eng avvalo xor bilan ishlashning tayanch nuqtalarini belgilab olish va shu asosda ish tutishga o'rgatish metodik jihatdan to'g'ri va qulay hisoblanadi. Bunda eng avvalo o'quvchilarni kuylanayotgan asarga qiziqtirish lozim. Masalan birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlashda shini unutmazlik kerakki, o'quvchilar doira, nog'ora, karnay kabi milliy cholg'u asboblarga bajonidil taqlid qiladilar. Ikki ovozli elementlarga o'tishda xorning jo'r bo'luvchi ovozlar guruhida "bum, ba-ka-bak", "trak, ta-ka-tum, tum", "g'a-ta, g'a-ta-g'u" kabi tovush taqlidlarda kvarta, kvinta, sekunda intervallari harakatida ijro etilishi yaxshi natija beradi

Xor (1-2-sinf) toza unison kuylashga erishgach ikki ovozlilikka o'tish davri boshlanadi. Ikki ovozli kuylash ko'nikmalarini shakllantirishda "kanon" usulidagi har xil mashqlar, kichik hajmli xalq qo'shiqlaridan foydalanish ancha qulaylik tug'diradi. "Kanon" usulida qo'shiq kuylash kelgusida ko'p ovozli va jo'rsiz kuylash malakalarini shakllantirishga zamin yaratadi. Ikki ovozlilikga utishni didaktiv tamoillari alohida oddiydan murakkabga, ya'ni dastavval ikki ovozlilik elementiga ega bo'lgan qo'shiqlar, keyin esa qo'shiq ikki ovozli (3-4 sinfdan boshlab) asarlarga o'tish tavsiya qilinadi.

Boshlang'ich sinflardagi xor bo'lib qo'shiq kuylash jarayonida egallangan ko'nikma va malakalar asta-sekin uncha murakkab bo'lmagan ko'p ovozlilik (3ovozli, 6-7 sinflarda 3-4 ovozli va xorsiz kuylashga)ga o'tish imkonini yaratadi. Bu jarayonda shoshilmasdan, tizimli va sinf-xor imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish tutish, o'qituvchidan sabr-toqat va pedagogik-psixologik yondashuvlarni talab qiladi. O'qituvchilarni ko'p ovozli asarlardagi garmonik sadolarni ishitib borishlari, keyinchalik ko'p ovozli qo'shiqlarni musiqa asbobi jo'rligisiz (a'kapilla) kuylay olish hamda uni chiroyli va ta'sirchan yangrashini sezish qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi.

Xor ishtirokchilari amalyotida ikki ovozlilikka o'tishda xor dirijorlari eng qulay va maqbul uslub sifatida mashqlarni a'kapella uslubida kuylattirishdir diya etirof etiladi hamda vokal xor musiqalarini asosan musiqa jo'rligisiz olib borishga harakat qilishadi. Masalan: biror qo'shiqni kuylashda ma'lum bir asosiy tovushni "zuv", "jon" bo'g'inida cho'zib turiladi. Ikkinchi ovoz partiyasi kvarta, kvinta, tersiya intervali oralig'ida "bum-bak", "bum-bak", "bum-bak", "bum" yoki "traka-taka" "tum-tum", "traka-taka" "tum" so'z bo'g'inlarida usuli qo'llaniladi. Bunda ikki ovoz partiyasi sadolanishiga erishiladi. Bunday kuylash vaqtida xorni ikki guruhga, birlamchi uch va to'rt guruhga bo'lib ish olib borish mumkin.

"zuv", "jon" kabi bo'limlarni qo'llash orqali ikki uch ovozlilikni jo'rsiz (a'kapella) hosil qilish o'quvchilarni asarlarni jo'rsiz kuylashga tayyorlash ham eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo'lib xizmat qiladi desak xato bo'lmaydi. Xorni ikki va uch guruhga bo'lish birgalikda "zuv" yoki "jon" bo'g'inini ma'lum bir balandlikda cho'zib, o'qituvchining qo'l ishorasi bilan kursatib turgunicha kuylash taklif qilinadi.

Bunda o'qituvchi: "kimning nafasi yetmasa, masalan, sen o'rtada kuylayotgan paytda bilintirmasdan nafas olib olgin, o'rtog'ing esa boshqa o'quvchi kuylayotganda nafas oladi" deb tushuntiradi.

"zuv" bo'g'inini qo'llash orqali amalga oshirilgan bu usul uzilmagan sadolanishga tez erishishda yordam beradi va o'quvchilarni ulama nafas olish

kunikmalarini o'zlashtirib olishiga yordam beradi. Melodiyaga ma'lum bir usul yordamida jo'r bo'lishni o'zlashtirish, bir ovozni chalib, ikkinchi ovozni kuylash, (fortepianoda) ikki ovozni chalib, birinchi ovozni qo'llash kabi mashqlarni "dirijorlik sinfi" ma'lumotlari jarayonida talabalarga berish va ularni mana shunday faoliyatga tayyorlab borishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ikki ovozli, uch ovozli cholg'u jo'rligida va jo'rsiz fonli shakllarda kuylash malakalarini yetarlicha o'zlashtirgandagina xor bilan ishlashda jo'rsiz asarlarni qiynalmasdan o'rgata olishi mumkin bo'ladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini "dirijorlik" darslarida duet bo'lib kuylashga o'rgatish, ton berishga o'rgatish, ton berilgandan so'ng asarni har bir partiyasiga yoddan kuylab dirijorlik qilishi, asar partiturasini yoddan chalishi, partituraning cholib istalgan partiyani kuylashga erishish, asarni vertikal akkord tizilmasini kuylay olishi bo'yicha beriladigan topshiriqlar eng samarali usullardir.

Melodik partiyani ma'lum bir bo'g'in, harflarda ("zu", "da", "de", "do", "du" ular "za", "zu", "ze", "zi", "zo" yoki "lya", "mi", "du" kabi bo'lishi mumkin) kuylash yoki bir guruh (partiya) kuyni so'zlar bilan ikkinchi partiya kuyni og'izni yumib kuylashi ham xor amaliyotida sinalgan usullardandir.

Vokal-xor mashqlari kuylashda tersiyali ikki ovozli mashqlar kuylash ham ijobiy samaradorlikka ega sanaladi. Masalan, do major gammasini yuqori va pastki tersiyada kuylash mumkin va bunday mashqlarni bemalol talabalarga tavsiya etish mumkin. Ayrim garmonik uyg'unlashuvlarda to'xtash ularning sadolanishi va partiyalar bir-birini eshitishi tersiyali ikki ovozli qo'shiqlarni o'rganishda esa qo'shiqning garmonik eng yorqin joylarida to'xtab diqqat bilan tinglash kabilar foydali usullardir.

Tersiyali ikki ovozlilikning kuy yo'llari cholg'u tayanchga ega bo'lib, dadilroq ijro etiladi. Shuning uchun o'qituvchi jo'rovozgacha alohida e'tibor berishi lozim.

Ko'povozli asarlar kuylashda tersiyali ikki ovoz kuylanadigan jo'rsiz usul bajarilayotgan parallel harakat uni o'zlashtirishini yengillashtiradi, lad turg'unligini his etish tuyg'usini kuchaytiradi.

Oliy ta'lim tahsili davrida talabalarga bunday mashq va topshiriqlarni "mustaqil ish" sifatida berish, talaba tomonidan ularni talab darajasida o'zlashtirilib borilishini nazorat qilish ularni jo'rsiz asarlar kuylash va jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirishda samarali natija beradi. Shu o'rinda biz bir qator mashq va qo'shiqlarni o'rganishda qo'llanishi mumkin bo'lgan ish usullari va mazmuni haqida to'xtalib o'tishni lozim topdik. O'ylaymizki bunday ish tutish shakl va uslublari ham bo'lajak musiqa o'qituvchilarini jo'rsiz asarlar bilan ishlash amaliyotiga tayyorlashda qo'l keladi.

I. Vokal-xor mashqlar.

Shoshilmay

1-mashq.

2-mashq

(Русская народная пееня).

Tezroq (Allegretto)

YOMG'IR YOG'OLOQ

(O'zbek xalq bolalar qo'shig'i).

R.Qodirov qayta ishlagan.

Tezroq

Asarlarni jo'rsiz shaklda shu tariqa o'rganish alohida partiyalarni o'rganishga bir muncha qulaylik tug'diradi. Chunki xor-dirijorning o'zi barcha

partiyalardagi kuyni (qo'shiq ohang yo'lini) yoddan o'zlashtirmasdan, hamohanglikda aytolmasdan (bir partiyani chalib, ikkinchi partiyani ovozda kuylab, yoki butun partiturani chalib, istalgan bir partiyani kuylash) uni xorga o'rgataolmasligi, ya'ni xor ijrosida kutilgan natijaga erishaolmasligi mumkin.

Xor bilan jo'rsiz asarni o'rganishga kirishishda avvalo asosiy partiyani (ovozni) xorga eshittirish so'ngra o'rganishni boshlash qolgan ovozlarni o'rganishni ancha yengillashtiradi. Chunki havaskor xor xonandalari (tajribali xonandalar ham) asosiy kuyni yaxshi anglamasdan, o'z partiyalaridagi kuyni hamohanglikda aytishga qiynaladilar. Ular uchun asosiy kuyni eshitib, o'z kuylarini aytishi partiyalarni bir-biriga moslashtiradi, shunda partiyalar bir butunlikda yangraydi. Asosiy kuy xonandalarga kuylash, eshitish va nazorat qilib borish imkonini beradi. Aksincha tajribasizlik xorda avval asosiy (yuqoridagi) kuy birinchi ovozda o'rgatilsa, uni boshqa ovozda ijrochilar ham eshitib, o'z partiyalardagi kuyni aytishda noaniqlikka yo'l qo'yishlari mumkin. Shuning uchun har bir jo'rsiz asarni o'rganish va xorga o'rgatishda uning melodik intonatsion tuzulishiga qarab ish tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asarni "ton" berish yo'li bilan "jo'rsiz" o'rgatishning o'z afzalliklari bor. Bunda dastlab fortepiano jo'rliğida dirijor kuyni chalib o'zi kuylaydi, so'ngra uni xor partiyasidagi xonandalar birgalikda kuylashadi. Shundan so'ng butun partitura chalinadi, xonandalar o'z partiyalari kuyini kuylashadi. Keying bosqichda fortepianoda "ton" beriladi (boshlang'ich tovush) xonandalar dirijorlik boshqaruvida kuyni jo'rsiz kuylashadi. Ikkinchi partiya bilan ham xuddi shu tarzda ish olib boriladi va ikki partiya qo'shib kuylaniladi. Bunda dirijor har bir partiya ijrosini diqqat bilan eshitib, kuzatib, xatolarni bartaraf etib boradi. Xor partiyalari bilan bunday ishlashda xonandalar kuyni taz va aniq o'rganadilar. Alohida-alohida ishlashda xonandalar ovozining bir tekisligiga, yaxshi ansamblga, sozga, sof intonatsiya, aniq so'z talaffuziga erishish mumkin.

Asar bilan ishlashda ayrim murakkab jummalarni qaytaravermaslik, balki shunga mos mashqlarda foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, eslab qolish

qiyin interval (sakrashlar) uchrasa, o'sha interval tovushlarini yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab "solfedjio" qilish va alohida takrorlash yo'li bilan eslab qolish mumkin. B.Umidjonov qayta ishlagan o'zbek xalq qo'shig'i "Qora soch" asari bunga misol bo'la oladi.

Xor asari bilan ishlashning barcha shakllarida bo'lgani kabi asar texnik jihatdan o'rganilgandan so'ng xor rahbari boshchiligida uning badiiy ijrosi ustida ishlashga kirishiladi. Bunda asarning badiiy g'oyasini ochish, obrazlari, xarakteri va ijro uslubi (stil) ustida ish olib boriladi. Har bir kichik yoki katta jumlar ma'lum notalar yig'indisidan iborat. Ana shu jumlar ritm va talaffuz jihatdan xonandalarga tanishligini hisobga olib, uni jumlash, ya'ni har kichik musiqiy bo'lakchalarni ijro qilishga o'tiladi. Musiqaviy iboralar **boshlanish, yuqori** (avj) va **oxirgi qismlardan** iboratligi uchun ularning so'z va musiqa, logik urg'ularini bilib ijro qilinadi. Har bir musiqaviy jumla o'rtasida ovoz sal kuchayib oxiri esa yumshoqroq ijro qilinishi darkor. Ovozni kuchaytirish (o'rta qismda) va kuchsizlantirish (oxirida) natijasida ifodali ijroga erishiladi. Har bir musiqiy jumlaning bir maromda kuylamay balki, ohanglardan foydalanish va ifodali ijroga erishish lozim. Asarni jumlagacha ajrata olish katta mahoratdir.

Umuman olganda ko'p ovozli va jo'rsiz asarlar bilan ishlashning xilma-xil uslublari mavjud. Lekin shunga alohida ahamiyat berish lozimki, xususan jo'rsiz asarlar bilan ishlashda asarning asosiy kuyi (melodiya) ni yaxshi sezmasdan (idrok qilmasdan) ikkinchi ovozni o'rganish qiyin va noto'g'ri bo'ladi. Shuning uchun ham jo'rsiz asarlar bilan ishlashda o'rganishni birinchi ovoz (melodiya) bilan boshlash to'g'riroq bo'ladi. Qolgan partiyalar qo'shiqning asosiy kuyini yaxshi anglab olganlaridan so'ng, o'z ovoz partiyalarini o'rganishlari oson kechadi.

Shunday qilib xor ijrochiligida jo'rsiz asarlar kuylash, jo'rsiz asarlarni xorga o'rgatish, ya'ni jo'rsiz asarlar bilan ishlash mahoratiga ega bo'lish musiqa

san'atining ajoyib namunalari bilan tanishib borish, ko'p ovozli va jo'rsiz asarlar musiqasi go'zalligini tushunish, qadrlash va sevishga o'rgatadi. Chunki deyarli barcha xalqlar xor madaniyatida xalq qo'shiqlarini "jo'rsiz" (a'kapella) uslubiga moslashtirilgan, qayta ishlangan namunalari yetakchi o'rin tutadi. Xalq xorlarining (bunday xorlar asosan xalq qo'shiqlari va ular asosida yaratilgan asarlarni kuylash va targ'ib qilishini asosiy maqsad qilib olgan bo'ladi) asosiy repertuari unga mansub xalq qo'shiqlaridan iboratdir. Shunday ekan bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab ashulachiligiga tayyorlashda ularni 1-bosqichdan boshlab "jo'rsiz" (ikki ovozli va ko'p ovozli) asarlar bilan ishlashga tayyorlab borish eng muhim pedagogik maqsadlar qatoridan o'rin olishi kerak bo'ladi.

**III BOB: XOR MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA
TALABALARGA JO'RSIZ ASARLAR BILAN ISHLASH
MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH YUZASIDAN AMALIY
TAJRIBALAR.**

**3.1. Talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish
uslublarini amaliyotga tadbir'i.**

Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini, bizning tadqiqotimiz mohiyatiga ko'ra xor dirijorlarini maktab (sinf) xor jamoasi bilan ishlash amaliyotiga tayyorlashga yo'naltirilgan tajribaviy faoliyat biz o'zimiz faoliyat yuritayotgan Samarqand davlat universiteti "musiqiy ta'lim" bakalavriat yo'nalishida olib borildi. Mazkur faoliyat xor va xorshunoslik asoslari hamda "dirijorlik" sinfi o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar ish rejasining mazmun va mohiyatiga mos uyg'unlikda tashkil etildi. Amaliy tajriba ishlariga kirishar ekanmiz bir tajriba-sinov ishlari obyekti sifatida tanlangan (3-bosqich) 2 ta guruh va 4-bosqich (2 ta guruh) talabalarining "xor va xorshunoslik asoslari" hamda "dirijorlik" sinflarida talabalar uchun tuzulgan dastur, xor mashg'ulotlari repertuari (bu yerda xor jamoalarining Davlat Attestatsiyasiga tayyorgarlik bo'yicha repertuar ham ko'zda tutilmoqda) bilan tanishib chiqdik.

O'z-o'zidan ravshanki, dirijorlik sinfida o'qiyotgan va xor mashg'ulotlarida asosiy maqsad talabalarni yarim yillik va dastur doirasida tanlangan asarlarga dirijorlik qilish va xor mashg'ulotlari jarayonida o'rganilishi lozim bo'lgan asarlarni o'zlashtirishlariga qaratilgan xor va xorshunoslik mashg'ulotlarida har yili Davlat Attestatsiyasida xor bilan chiqish qiladigan bittiruvchilar uchun tanlangan asarlarni yuqori saviyadagi ijrosiga erishish, bunda bittiruvchi talabaning xorga dirijorlik qilishga tayyorlash mazkur jarayonning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shu o'rinda asosan uchinchi, to'rtinchi bosqich talabalarining birlashgan xor jamoasini turli madaniy ommaviy tadbirlarda chiqishlari (Mustaqillik bayrami, Navruz bayrami, Yangi yil, Konstitutsiya kuni, alohida viloyat va shaharda

o'tadigan tadbirlar) va ko'rik tanlovlarga qatnashishlari uchun maxsus tanlangan xor asarlari bilan ishlash foliyati ham alohida o'rin tutadi.

Biz o'zimizning pedagogik tajriba-sinov ishlarimiz ishchi dasturini ishlab chiqishda ta'kidlab o'tilgan ishlarning barchasini inobatga oldik. Har bir jamoa (3-kurs bir jamoa, 4-kurs bir jamoa) ya'ni xor jamoasining ish tartibi, xor repertuari, xor bilan ishlashi ko'zda tutilgan talabalar, ularning xor ijrochiligi va dirijorlik fani bo'yicha malakaviy tayyorgarliklari bilan, shuningdek, asosan ushbu talabalarni "dirijorlik" sinfida xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tartibi, tuzulishi, tashkiliy-metodik o'ziga xoslik jihatlari (bu yerda har bir o'qituvchining o'z sinfida darslarni tashkil etishi, talabalar bilan ishlash uslublari ko'zda tutilmoqda) o'rganib chiqildi.

Shundan so'ng fakultet dekanati xor va xorshunoslik asoslari dirijorlik sinflarida mashg'ulotlar olib boruvchi professor o'qituvchilar bilan bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xor dirijorligi bo'yicha maktab faoliyatiga, xususan maktab o'quv xorlari bilan ishlash faoliyatiga tayyorlash yuzasidan olib boriladigan tajriba-sinov ishlari mazmuni, maqsadi, uni tashkil etilishi, olib boorish mexanezimi, buning uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar, imkoniyatlar, dekanat, professor o'qituvchilar tomonidan ko'rsatiladigan amaliy, metodik, ta'limiy yordam borasida batafsil kelishib olindi. Dirijorlik sinfida esa xor jamoasi bilan ishlaydigan talabalarni amaliy faoliyat bilan bog'liq mashg'ulotlarga ko'proq jalb etish, xor asari parteturasini o'zlashtirishi, ovoz partiyalarini yod olishi, fortepianoda yoddan chalish, ton berish, xor partiyalarini bir qo'lda chalib, bir qo'lda dirijorlik qilib kuylash malakalarini egallash, xor jamoalari oldiga chiqib dirijorlik qilish, xorga asarni o'rgatish ya'ni xor bilan ishlash tajribalarini egallab borishlariga asosiy e'tibor qaratilishi nazarda tutildi. Shu o'rinda:

-bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor bilan, shu o'rinda jo'rsiz xor asarlari bilan ishlash bo'yicha nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarini shakllantirish;

-dirijorlik sinfida olingan bilimlarni, vokal ijrochiligi bo'yicha egallangan vokal-xor malakalarini amaliy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmalarini qaror toptirish;

-xor bilan ishlash jarayonida o'zini xor dirijori sifatida namoyon qila olish;

-xor bilan ishlaydigan asarni dirijorlik sinfi mashg'ulotlari va darsdan tashqari mustaqil faoliyatda puxta va mukammal o'rganish, partituraning ovozi partiyalarini yod olish, unga dirijorlik qilish rejasini o'qituvchi yordamida ishlab chiqish va uni yod olish'

-konsertmeyster jo'rligida ishlash, xor partiyalarini xususiy va umumiy ansambligini eshitish, his qilish, asar xarakterini to'g'ri berish, dirijorlik texnikasini yaxshi egallashga e'tibor qaratish;

-xor jamoasi bilan yaxshi munosabatda bo'lish, ularni bir maqsad yo'lida birlashtira olish, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida pedagogik mahoratini namoyan qila olishlariga erishish;

-xor ishtirokchilarida olib borilayotgan o'quv-mashg'ulotlariga to'g'ri munosabatni qat'iy qat'iy toptirish;

-dirijor-talabalarni va xor ishtirokchilarini individual xususiyatlari, musiqiy tayyorgarliklari (musiqiy eshituvi, diqqati, xotirasi, tinglash madaniyati, vokal-xor malakalarini o'zlashtirganlik darajasi, ovoz diapazoni va hokozo) ni hisobga olish;

-mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda talabalarni ichki ehtiyojlari va qiziqishlari va tashabbuskorligiga tayanish;

-mashg'ulotlarni tizimlilik, izchil va uzviyligiga erishish;

-ko'zlangan maqsadning natijalanganligiga erishish, harakat qilish;

-xor asarlarini g'oyaviyligi, milliyliigi, yuksak ijod namunasi ekanligi, mavzular rang-barangligiga e'tibor qaratish kabilarga amaliy tajriba ish faoliyatining asosiy maqsadi, mohiyatini ifoda etuvchi omillar sifatida tayanib ish tutildi.

Bo'lg'usi bakalavrlarni xor bilan ishlash faoliyatiga tayyorlash, shu jarayonda ularni jo'rsiz asarlar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini

shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarning quyidagi shakl, metod va vositalari yordamida dissertatsiya oldiga qo'yilgan maqsadni samarali natijalanganligiga erishish amaliy tajriba ishlarini tashkil etish jarayonida aniqlandi:

1. Talabalarni musiqiy-nazariy savodxonligini ta'minlashga qaratilgan ish shakllari: ma'ruza, suhbat, masalalar yechish, asarlarni tahlil qilish, mustaqil o'rganish, amalda namoyon qila olish (fortepianoda chalish, kuylash, dirijorlik qilish) ko'rgazmali vositalar, texnik vositalardan foydalanish;

2. Metodlar: o'qitish, tushuntirish, amalda ko'rsatish, og'zaki bayon qilish, asar ustida mustaqil ishlash, savol-javob, mashq qilish, rag'batlantirish va hokozo.

3. Vositalar: fan o'qituvchilari, iqtidorli talabalar namunasi, texnik vositalari, cholg'u asboblari (fortepiano) o'quv-uslubiy manbalar, ta'limiy-tarbiyaviy ishlar.

Talabalarni xor jamoasi bilan ishlashga xususan jo'rsiz xor asarlari bilan ishlashga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etilishi va o'tkazilishiga mazmun, shakl, ko'lam, makon va vaqt hajmi nuqtai-nazaridan tayyorgarlik ko'rildi. Talabalarni mazkur faoliyatga tayyorlash bo'yicha ham maxsus suhbat, tushuntirish, targ'ibot ishlari olib borildi.

Pedagogik amaliy tajribalar ishlarini deyarli barcha talabalar mamnuniyat va xayrixohlik bilan kutib olishdi. Ular o'quv-mashg'ulotlarining tashkil etilishi, o'zlarining mazkur faoliyatdagi faol ishtiroki, o'quv-mashg'ulotlarining talabalarning musiqiy-nazariy, amaliy, vokal-xor, dirijorlik, cholg'uchilik, musiqa asarlarini tahlil qilish, umumiy madaniyatiga, estetik tarbiyasining boyishiga samarali ta'sir etganligining bosh omili-tadbirlarning barcha talablarni kelgusidagi pedagogik faoliyatiga bog'liq ekanligi bilan izohlanishini to'g'ri anglay bilishlarida ko'rindi.

Tajriba-sinov ishlari doirasidagi mashg'ulotlar, tadbirlar, repititsiyalar, mustaqil ishlar jarayoniga talabalar va mutaxassislik fanlari o'qituvchilarini jalb etilishini tadqiqot maqsad vazifalarini peagogik jihatidan to'g'ri deb topgan holda ish olib bordik. Chunki talabalarning ushbu jarayondagi faolligini, ularni to'g'ri yo'naltirish, tayyorlash, yutuq kamchiliklarini ko'rsatib borish, ular ustida

qo'shimcha ishlash, bartaraf etish kabilar vosita, pedagog-o'qituvchilar ko'magida olib borildi. Bularning barchasi talabalarning amaliy-tajriba ishlarida ishtiroki hamda ma'lum natijalarga erishganliklarini tahlil qilish, matematik-statistik metod yordamida qayta ishlash va natijalarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi e'tiborda tutildi.

Shundan so'ng tajriba-sinov ishlarining asosiy shakllantiruvchi bosqichida rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirishga kirishildi:

1. Bitiruvchi talabalarni xor bilan ishlashlari uchun ularga semestr uchun va Davlat Attestatsiyalari uchun berilgan asarlarni ikki kishiga bir a'kapella (jo'rsiz asar) va bitta turli mavzudagi, xarakter, janrdagi (syuita, kantata, poema, qasida, bolalar, o'smirlar, katta aralash xor uchun mo'ljallab yozilgan asar) asarlarni dirijorlik sinfida o'rganish, "xor va xorshunoslik asoslari" mashg'ulotlarida xor bilan shu asarlar ustida ishlashlari tushuntirildi. Uchunchi va to'rtinchi bosqich xor rahbarlari bilan kelishilgan holda 22 ta talabaning xor mashg'ulotlarida navbat bilan (ikki talabaga 20 minutdan, bittasi birinchi marta dirijor sifatida xor bilan ishlaydi, ikkinchisi konsertmeystri sifatida unga yordam beradi, keying safar ular almashinib ishlashadi) ishlash jadvali tuzib chiqildi. Xor mashg'ulotlari haftaga bir marta umumiy mashg'ulotini o'tkazish bir martasida esa to'rtta umumiy xor partiyasi bilan alohida-alohida o'quv xonalarida talabalarni ishlashlari yo'lga qo'yildi. Bunda ham 8 ta talaba ikkitadan bo'lib, 20 minutdan almashib xor partiyalari bilan alohida o'z asarlarini o'rgatish yo'li bilan ishlashadi. Bir partiya xor asarlarini o'zlariga tegishli ovozni o'rganadilar so'ngra mashg'ulotda to'rtala partiyani qo'shgan holda talabalar xor jamoasi bilan xor-dirijorlari sifatida ishlashadi.

Bu faoliyatni dastlabki bosqichida talabalarni xor bilan ishlashga o'rgatish yuzasidan ilk qadamlarini qo'yishga, xor bilan ishlash tartib-qoidalari, talablarini ma'lim darajada zarur ko'nikmalarni hosil qilishlari "dirijorlik sinfidagi mashg'ulotlar" jarayonida yo'lga qo'yildi. Bir sinfda 5 ta talaba o'qiydigan bo'lsa ularning har biri bir mashg'ulotda o'qituvchi rahbarligida o'zlariga berilgan

asarlarga dirijorlik qilishsa, ikkinchi sinflar navbat bilan (vaqt o'qituvchi tomonidan belgilanadi) xor bilan ishlaganda mashg'ulot o'tkazadi. Bu faoliyatda o'qituvchi talabani kuzatib xato-kamchiliklarini to'g'rilab kerakli maslahatlarini berib, o'zi bevosita kuzatib, ko'rsatib berib talabani xor bilan ishlash faoliyatiga tayyorlab beradi.

A'kapella asarni xor jamoasiga o'rgatish uchun talabanning o'zi quyidagi tayyorgarlikka ega bo'lishlari belgilab qo'yildi:

1. A'kapella asarini to'liq parteturasini (ikki qo'lda) chalishni o'rganish;
2. Asarni ovoz partiyalarini yod olish;
3. Asar asosiy tonalligini, uch tovushligini, fortepianoda chalib, har bir ovoz partiyasiga ton berish;
4. Kamerton yordamida asosiy uch tovushlikni so'ngra partituralarni boshlang'ich tovushlarini chala bilish;
5. Asarni ovoz partiyalarini bir qo'lda chalib, bir qo'lda dirijorlik qilish;
6. Ovoz partiyalarini yoddan to'g'ri kuylash;
7. Asarni melodic va garmonik akkordlar birikmalarini kuylay olish;
8. Dirijorlik texnikasini o'zlashtirish, asarni xor jamoasi tomonidan badiiy-emotsional kuylanishni taminlovchi dirijorlik mahoratini egallash;
9. Asarni qismlarga bulib o'rgatishni rejalashtirish;

Talabanning ushbu malakalarni egallashlari va amaliy faoliyatda kuylay olishlari uchun shaxsan dirijorlik sinfi o'qituvchisining mas'ulligi belgilab qo'yildi.

Shuni aytish kerakki asar dirijor ya'ni xor bilan ishlashga tayyorgarlik ko'rayotgan talaba tomonidan puxta o'zlashtirilmasa o'rgatish davrida u ko'p qiyinchiliklarga duch keladi.

Agar asar orkestr jo'rligida ijro etilishi yoki ansambl jo'rligida ijro etiladigan bo'lsa orkestr yoki ansambl partiturasini bilan tanishish kerak. Dirijor asarni yuqorida aytib o'tilgan talablar asosida to'liq o'rganib bo'lgach nafas olish yo'llari

va joylarini belgilaydi. Xor partiyalari yozilgan vareantlarni tayyorlaydi. Xor bilan ishlash vaqti, texnik, tashkiliy tomonlarini hisobga oladi.

Xor ijrochiligi amaliyotida xorga asar o'rgatishning usul va metodlari ishlab chiqilgan. Biz o'z tajribaviy ishlarimizni olib borish jarayonida sinalgan ish usullariga murojaat qildik. Bu jarayon shartli ravishda uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Asarni xorda kuylovchi ishtirokchilarga eshittirish (har bir partiya bilan ishlanganda uni kuylab ko'rsatish);

2. Asarni xorga (alohida partiyalarga bo'lib, yoki umumiy tarzda) o'rgatish;

3. Mustahkam va badiiy ifodali qilib kuylash ustida ishlash;

Biz tajriba ishlarimizni olib borish davomida talabalarni xor bilan, xususan jo'rsiz asarlar bilan ishlash faoliyatini doimiy ravishda kuzatib bordik. Har bir mashg'ulotdan so'ng xor rahbari, professor-o'qituvchilar, talabal va xor ishtirokchilari ishtirokida tahliliy suhbatlar olib bordik. Talabalarni xor bilan ishlash ko'nikma va malakalaridagi ijobiy o'zgarishlarni alohida ta'kidlab, kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida maslahat vatavsiyalarimizni berib bordik. Shu o'rinda xor san'ati amaliyotiga oid manbalarda mashhur xor san'ati namoyondalarining fikrlari, tavsiyalari, ish usullari haqida talabalarni xabardor qilib borishga harakat qildik.

-xor ijrosiga kirishishda asarni xonandalarga tanishtirishda ijro yuqori badiiy saviyada bo'lmasa, eng yaxshi yozilgan asar ham xor qatnashchilarida yaxshi taassurot qoldirmasligi va ularda asarni o'rganishga qiziqish uyg'otmasligi mumkin;

-asarni xonandalarga eshittirish jarayonida uning mazmuni, mavzusi, yaratilgan davri, janri, xarakteri, qanday xor jamoasi uchun mo'ljallab yozilgan, mualliflari (so'z va musiqa) haqida tushuncha berish;

-asarni o'rgatish, taxminiy rejasini tuzish, uni ma'lum bo'laklarga bulib o'rgatish; ma'lumki ko'pchilik qo'shiqlar ikki qismdan iborat bo'ladi. Qo'shiqning kirish qismi daromad va ikkinchi qismi haqoratni tashkil etadi. O'z navbatida har

ikkila qism jummalarga bo'linadi. Qo'shiqni shunday frazalarga bo'lib har bir xor partiyasiga alohida o'rganilib keyin birgalikda kuylanadi.

-asar texnik tomondan o'rganiladi. Bunda uning adabiy teksti, ritmik tuzulishi o'rganiladi va ritmik tuzulishi o'rganiladi va solfedjio kilish yaxshi natija beradi.

-asarni o'rganishni melodik intonatsion tuzulishiga qarab har xil ovozga bo'linishi mumkin. Masalan tajribali xorlar uchun avval birinchi ovozni eshitish va o'rganishdan boshlash qolgan ovozlarni o'rganishga birmuncha qulaylik tug'diradi. Chunki tajribali xonandalar asosiy kuy (melodiya) ni anglamay o'z partiyalaridagi kuyni hamohanglikda yaxshi his qila olmaydilar. Ular uchun asosiy kuyni eshitib, o'z kuylarini partiyalariga moslashtiradi. Shunda partiyalar xorlarda asosiy kuy birinchi ovozda o'rgatilsa, boshqa partiya ovozlari uni eshitib unga bevosita ergashib kuylashlari kuzatiladi.

-asarni xor partiyalari bilan alohida o'rganishning o'z afzalliklari bor. Birinchidan kuyni xonandalar tez va aniq o'rganadilar. Ikkinchidan esa alohida partiyada xonandalar ovozining bir tekisligiga, yaxshi ansamblga, sozga, to'g'ri, aniq so'z talaffuzi, tovush intonatsiyasiga erishish mumkin.

-asar texnik jihatdan so'ng uning badiiy ijrosi ustida ishlashga kirishiladi.

-xor asarning badiiy mazmunini ochish uchun uning to'g'ri tempini topa olish alohida o'rin tutadi. Chunki asar kompazitor tafakkuriga, fantaziyasiga binoan ma'lum "temp"da ijro qilinmasa, uning asl ma'nosi badiiy ta'sirchanligi uncha yaxshi bo'lmaydi. Masalan, marsh tempidagi asarni tezlashtirish, yoki nihoyatda sust tempda ijro etilishi, yoki "vals" tempidagi lapar, yalla janridagi asarlarni tempi asar xarakteriga mos kelmasa asarni badiiy yetukligiga zarar yetadi.

-asar ma'lum darajada o'rganilgach, unga sayqal berish bosqichiga kirishiladi va xor asarning asl ma'nosini ochib beruvchi ifoda vositalariga mumkin qadar aniq rioya etgan holda kuylaydilar.

-asar texnik badiiy tomondan mukammal o'rganilgach va sayqal berilgach "geniral" mashg'ulotlarga o'tish mumkin.

Tajriba ishlarimizda biz 4-bosqich talabalarining 14 haftalik pedagogik amaliyotlari davomida amaliyot o'tayotgan maktablarda xor to'garagi mashg'ulotlarida qatnashdik va xor bilan ishlash faoliyatiga alohida e'tibor berdik. Bunda talabaning xor mashg'ulotlari va biz tomonimizdan yo'lga qo'yilgan mashg'ulotlarimiz jarayonida egallagan bilim ko'nikmalarini mustaqil ravishda maktab bolalar xor ijrochiligida qo'llashlari uchun imkoniyat yaratildi. Biz navbati bilan maktablarda bo'lib, talabalarni maktab bolalar xor jamoasi bilan ishlash faoliyatini kuzatib bordik. Bunda ham har bir mashg'ulotdan keyin talabalarning xor bilan ishlash borasidagi yutuq va kamchiliklari birgalikda tahlil qilib borildi.

Tizimli yo'lga qo'yilgan maqsadli va aniq ishlab chiqilgan reja va dastur asosida olib borilgan 10 oylik tajriba va kuzatuvlarmiz oxiridagi tajriba guruhi talabalarini xor asarlari bilan ishlashi bo'yicha nazariy, amaliy bilim, ko'nikma va malakalarida ijobiy ma'noda sifat o'zgarishlarni quyidagi mezonlar asosida baholashga muvaffaq bo'ldik.

1. Xor asari partiturasini to'liq fortepianoda chala bilishi;
2. Xor asarini g'oyaviy-badiiy mazmuniga to'g'ri tavsif bera olishi, tushuntirib, so'zlab, sharhlab berishi;
3. Asar mualliflari (she'r, musiqa) haqidagi ma'lumotlardan xabardorlik darajasi;
4. Asarni qanday xor uchun mo'ljallab yozilganligi (aralash, erkaklar, bolalar);
5. Asarni barcha ovoz partiyalarini yoddan kuylay olishi;
6. Asarni garmonik akkord, melodik intervallarini kuylay olishi;
7. Asar tonalligini ton berish yo'li bilan ovozda ifodalay olishi;
8. Asarni xorga o'rgatish rejasini tuzishi va shu asosda ishlay olish ko'nikmasiga egaligi;
9. Asarga dirijorlik qilishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni lozim darajada o'zlashtirganligi;

10. Asar bilan amaliy ishlash tajribasini qay darajada egalaganligi va amalda namoyon qilishi.

3.2. Talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini o'sish darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich va mezonlar tahlili.

Tadqiqot doirasida o'n oyga yaqin vaqt davomida talabalarni xor asarlari bilan ishlashga shu o'rinda ko'proq diqqat va e'tibor qaratilgan holda jo'rsiz xor asarlari bilan amaliy ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish borasida tajriba-kuzatuv ishlari olib borildi. Tajriba kuzatuv jarayonida biz talabalarni xorda kuylash bilan birga kichik hajmdagi jo'rsiz asarlarni xorga o'rgatish, unga dirijorlik qilish, ushbu faoliyatda yakuniy davlat attestatsiyasiga olib chiqiladigan xor asarlarini iloji boricha bitiruvchi talabalarning o'zlari tomonidan dirijorlik qilinib, xor partiyalari bilan ishlash, umumiy xorni boshqarishlariga e'tibor qaratildi. Shu o'rinda xor jamoalari (har bir kurs alohida xor jamoasi va ular bilan alohida o'qituvchilar ish olib borishadi) rahbarlari bilan kelishilgan holda bitiruvchi talabalarni xor bilan (alohida alohida partiyalar bilan va umumiy xor bilan) ishlash jadvallari tuzib chiqildi. Talabalarni "dirijorlik" fani bo'yicha o'qituvchilari ularni xor asarini jamoa tomonidan o'zlashtirilishi, badiiy ijrosi uchun mas'ul ekanliklari, talabaning xor bilan ishlaydigan kunlari uning yonida bo'lishi, zarur yordam va maslahatlarini berib borishlari yo'lga qo'yildi.

Shundan so'ng talabalarni xor-dirijori sifatida xor bilan ishlash ko'nikma, malakalarini aniqlovchi mezonlar (oldingi paragrafda ko'rsatilgan) asosida tajriba-nazorat guruhlaridagi talabalarni tayyorgarliklari sinab ko'rildi. Eslatib o'tganimizdek tajriba guruhida xor ijrochiligi va cholg'u ijrochiligi bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik ko'radigan talabalar, nazorat guruhiga esa bitiruv malakaviy ishi yozadigan talabalar kiritildi.

Tajriba-sinov boshidagi har ikkala guruh talabalarini xor bilan ishlash (xor jamoasiga asar o'rgatish, jo'rsiz asar bilan ishlash) bo'yicha bilim, tajriba, ko'nikma va malakalarini tekshirish natijalari quyidagicha bo'ldi.

1-jadval.

Talabalar xor jamoasi bilan ishlash ko'nikma va malakalarini darajalari

Tajriba boshida

Guruhlar	Talabalar soni	Baholash natijalari		
		“qoniqarli”	“o'rta”	“yuqori”
Tajriba Guruhi	25	48,5%	30,3%	21,2%
Nazorat Guruhi	24	44,4%	30,6%	25,4%
Umumiy ko'rsatkich.	49	46,5%	30,5%	23,3%

Dastlabki ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarni xor asarini nazariy jihatdan tahlil qilish, amaliy jihatdan o'zlashtirishi – fortepianoda chalishi, dirijorlik qila olishi, asarni xor jamoasiga o'rgata olish ko'nikma va malakalari talab darajasida emasligini ko'rsatdi. Bu esa talabalarni xor dirijorligi faoliyatiga tayyarlash ishlariga e'tiborni tubdan o'zgartirishni, bu ishga barcha professor o'qituvchilar e'tiborini tortish, talabalarni dars jarayonida (xor va xorshunoslik asoslari, dirijorlik mashg'ulotlarida) va darsdan tashqari jarayonda xor bilan

ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha barcha imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanishni taqazo etar edi.

O'qish davrida talabalarni ko'proq cholg'uchilik, vokal ijrochiligi va xorda kuylash malakalarini egallashlariga asosiy e'tibor qaratilgan, ularni kelajakda musiqa o'qituvchisi bo'lib, ayni vaqtda maktabda xor bo'lib qo'shiq kuylash faoliyatini olib boruvchi xor-dirijori sifatida ham faoliyat yurutishi, bu faoliyat ularni oliy ta'limdagi tahsili davomida tayyorlab borishi kerakligiga e'tibor berilmaganligi tashvishli holat edi.

Bizning tadqiqotimiz maqsadi esa bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab musiqa amaliyotiga xor-dirijori sifatida har jihatdan tayyorlash, bunga ularda talabalik davridan qiziqish va intilish ishtiyoqini o'rgatish, xor va xorshunoslik asoslari, dirijorlik sinfi mashg'ulotlarida ularni ushbu faoliyatga yo'naltiruvchi ishlarni izchil sur'atda yo'lga qo'yishdan iborat bo'lib, bu o'z navbatida o'ziga xos tashkilish, pedagogik, metodik tayyorgarlik, pedagogik shart-sharoitlarni taqozo etardi. Shuning uchun biz pedagogik tajribalarimizning asosiy shakllantiruvchi bosqichida talabalarni xor asarlari, shu jumladan jo'rsiz xor asari bilan ishlash faoliyatiga tayyorlash bo'yicha ishlarni rejali, aniq maqsadga yo'naltirilgan holda olib borilishiga harakat qildik. Talabalar bilan bu borada o'tkazilgan suhbatlarda ularning kelgusi faoliyatida xor-dirijorligining tutadigan o'rni, bunga hozirdan boshlab zarur nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boorish bilangina erishish mumkinligi batafsil tushuntirildi. Shundan so'ng xor va xorshunoslik asoslari, dirijorlik bo'yicha fan o'qituvchilari bilan ham bu haqda fikrlashib olindi, talabalarni dirijorlik va xor mashg'ulotlari jarayonidagi xor bilan ishlash, xor asariga dirijorlik qilish faoliyatlari bevosita bizning kuzatuv-nazoratimiz ostida hamda tavsiyalarimiz, ishlab chiqilgan metodikamiz doirasida olib borildi.

Bundan tashqari talabalarni pedagogik va o'quv amaliyotlari davrida xor bilan ishlash bo'yicha bilim va malakalarini umumta'lim maktablari musiqa darslarida sinab ko'rishlari yo'lga qo'yildi. Bunda har bir talaba tomonidan

bittadan kichik bolalar folklore (jo'rsiz) qo'shig'ini va bittadan o'zbek kompazitorlarining bolalar uchun atab yozilgan qo'shiqlarini o'zlariga berkitilgan sinflarda o'rgatish vazifasi topshirildi va amaliyotini baholashda xor dirijori sifatidagi o'z bilim, malakalarini qay darajada ko'rsataolganliklari tegishli komessiya tomonidan kuzatilib inobatga olinishi uqtirib o'tildi.

Mana shu kabi amaliy faoliyatdan keyin talabalarni xor bilan ishlash, xorga qo'shiq o'rgatish, jo'rsiz asarlar bilan ishlash, dirijorlik mahoratini namoyon qila olish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarida yuz bergan o'zgarishlarni shu maqsadda biz tomonimizdan qo'llangan ish shakl, uslublarini qay darajada samaradorlik kasb etganliklarini aniqlash uchun tajriba va nazorat guruhlarida ikkinchi bor sinov mashg'ulotlari o'tkazildi. Bunda ham har bir talabani xor bilan ishlash faoliyatiga tayyorgarlik darajalari yuqorida aytib o'tilgandek mezonlar asosida baholandi.

Quyida tajriba va nazorat guruhlaridagi tajriba-sinov ishlari natijalarining jadvallar bo'yicha ifoda ko'rsatkichlarini keltiramiz.

Tajriba avvali va oxiridagi ko'rsatkichlarni qiyosiy taqqoslash va tahlil qilish tajriba guruhida talabalarining yuqori va yaxshi deb baholangan mezonlari bo'yicha xor bilan ishlash, xorga asar o'rgatish, xor asarlarini nazariy tahlil qilish bo'yicha bilim va ko'nikma va malakalarida sezilarli darajada o'sish bo'lganligini ko'rsatdi. Bu holat jadvalda quyidagicha ko'rinish oldi.

2-jadval.

Talabalarining xor bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllanganlik darajalari.

Tajriba-sinov oxirida

Guruhlar	Talabalar soni	Xor bilan ishlash darajalari ko'rsatkichlari		
		“qoniqarli”	“o'rta”	“yuqori”

Tajriba				
Guruhi	25	16,9%	44,7%	38,4%
Nazorat				
Guruhi	24	28%	49%	23%
Umumiy ko'rsatkich.	49	22,5%	46,8%	30,7%

Ushbu ko'rsatkichlar talabalarning xor bilan ishlash amaliyotiga tayyorlashda biz qo'llagan ish shakl va usullarimiz, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, pedagogik faoliyat samarali bo'lganligi tadqiqot maqsadi va vazifalarini amalga oshirish muvaffaqiyatli kechganligini isbotladi.

Talabalarni xor-dirijorligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari, amaliy ishlash tajribasidagi o'zgarishlar darajalarini, ya'ni o'tkazilgan tajribalar natijasida olingan ma'lumotlarni aniqlash, ishlab chiqilgan qoida va mezonlarni maqsadga muvofiqligini isbotlash uchun matematik statistika metodini qo'lladik. Chunki tajribalarning natijalarini aniqlash uchun qo'llanilgan qoida va mezonlar tajriba davomida talabalarni bilim, ko'nikma va malakalaridagi real o'zgarishlarni ko'rsatuvchi omillardir.

3-jadval

Talabalarning xor bilan ishlash ko'nikma va malakalarini shakllanganlik darajalaridagi o'zgarishlar.

Guruhlar	Baholash natijalari		
	“past”	“o'rtta”	“yuqori”

Tajriba	$n_1=16,9$	$n_2=44,7$	$n_3=38,4$
Nazorat	$m_1=28$	$m_2=49$	$m_3=23$

Bu jadvalda biz n_1 va m_1 lar orqali tajriba va nazorat guruhlarining sinov oxiridagi talabalarni xor asarlari, jumladan jo'rsiz xor asari bilan ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malaklarini o'sish darajalarini (% hisobida) belgilab oldik. Bundan tashqari biz X_1 va U_1 lar orqali mos ravishda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilab olib 3- jadval asosida quyidagicha 3- tanlanma taqsimoti jadvalini tuzdik.

$$P_1 = \frac{n_1}{100}, \quad Q_1 = \frac{m_1}{100}$$

4-jadval

Talabalarining xor bilan ishlash ko'nikma va malakalaridagi o'sish darajalarining taqsimoti.

TAJRIBA-SINOV GURUHLARI BO'YICHA	NAZORAT GURUHLARI BO'YICHA
$X_1 : 3, 4, 5$	$U_1 : 3, 4, 5$
$P_1:P_1 = 0,169, P_2 0,447, P_3 = 0,384$	Q_1
	$Q_1 : \quad \quad \quad = 0,28; Q_2= 0,49; Q_3$

UMUMIY XULOSALAR.

Tadqiqot ishini bajarish va erishilgan natijalar quyidagicha umumiy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi:

1. Yosh avlodga munosib tarbiya berish birinchi navbatda yuqori malakali kadrlarga bog'liq. Bu esa har tomonlama barkamol shaxs va malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogika oliy o'quv yurtlari murabbiylari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bo'lg'usi pedagog kadrlarni maktab amaliyotiga tayyorlash va o'sib kelayotgan yosh avlodni har jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun mas'ul shaxslarni tayyorlash demakdir. Bu o'rinda musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida faoliyat yurutuvchi bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini uning kasbiy faoliyatiga tegishli barcha fanlardan nazariy va amaliy bilim malakaga ega kadr sifatida tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir.

2. Maktab musiqa madaniyati darslari bir qator faoliyatlar negizida tashkil etilib, bu faoliyatlar orasida xor bo'lib qo'shiq kuylash alohida o'rin tutadi. Ushbu faoliyatda o'quvchilar turli mavzu va janrdagi o'zbek xalq qo'shiqlari, zamonaviy kompazitorlar ijodiga mansub, qardosh xalqlar ijodiga oid asarlarni kuylashadi. Ularning g'oyaviy badiiy mazmunidagi eng ilg'or g'oyalardan bahramand bo'lishadi. Bu esa ularning badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy tarbiyasida juda katta ahamiyat kasb etadi.

3. Tadqiqotni olib borish davomida umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilari tomonidan musiqa darslarini xor bo'lib qo'shiq kuylash faoliyatini pedagogik, metodik va xor san'atining spetsifik xususiyatlariga ko'ra tashkil etilishi va o'tkazilishida jiddiy muammolar mavjudligi kuzatildi. Tadqiqotni olib borish jarayonida mavjud muammolarni bartaraf etishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga asosiy e'tibor qaratildi:

-pedagogika oliy o'quv yurtlarida musiqa o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishlarida bakalavrlarni xor dirijorligi bo'yicha amaliy ishlash ko'nikma va malakalarini ta'limning dastlabki bosqichlarida yo'lga qo'yish;

-pedagogika oliy o'quv yurtlarida musiqa o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishlarida ya'ni "musiqiy ta'lim" ixtisosliklarida "dirijorlik" va "xor sinfi" mashg'ulotlarida talabalarni xor bilan ishlash (xor dirijori) faoliyatiga tayyorlash tizimini ishlab chiqish;

-ma'lum jarayonda talabalarni faqat xorda kuylovchi emas, xor bilan ishlay oladigan xor rahbari va xor dirijori sifatida tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

-o'quv va pedagogik amaliyotlarni o'tash va uni baholashda talabalarni xor bilan ishlash faoliyatiga alohida o'rin ajratish;

-talabalarni xor asarlari, xususan bizning tadqiqotimizning bosh muammosi bo'lgan jo'rsiz asarlar bilan ishlashga nisbatan qiziqish ishtiyoqi va o'qituvchilik mas'uliyatini rivojlantirib borish;

-bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab xor jamoasi bilan ishlashga ya'ni xor-dirijori faoliyatiga tayyorlashning ilmiy asosli metodik tizimi hamda metodik tavsiyalarini ishlab chiqish;

-ushbu yo'nalishdagi mamlakatimiz va xorij pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi tajribalarni ommalshtirish;

Bizning ushbu yo'nalishdagi tadqiqiy izlanishlarimiz bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor bilan ishlash amaliyotiga tayyorlashda maxsus dastur va

metodika asosida amalga oshirilganda kutilgan natijaga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.A. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7-Tom.-T.: O'zbekiston, 1999y.-413b.
2. I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.2-Tom.-T.: O'zbekiston, 1996 y.-379 b.
3. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi.-T.: O'zbekiston, milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000y.
4. I.A. Karimov. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: "Sharq" nashriyoti,1997y.
5. I.A. Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili - T.:O'zbekiston, 1995y.
6. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008y.
7. I.A. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: Ma'naviyat, 2011y.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi." -T.:Ma'rifat, 1998-y. 1-aprel.
9. Oliy ta'lim bakalavrlar tayyorgarligining minimal darajasiga qo'yilgan talablar. Musiqiy ta'lim, DTS.-T.: O va O'MTV, 2009y.
10. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Musiqa. -T.: Ta'lim taraqqiyoti, 6-7-maxsus sonlar, 1999y.

11. Umumtaliim maktablari musiqa dasturi.-T.: O'qituvchi, 1996y
- 12.O'zberiston Respublikasi Prezidentining "O'zberistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbiri to'g'risida"gi farmoni. 1995-y, 20-oktyabr. -T.: O'zberiston ovozi, 1995y, 21-oktabr.
- 13.Xor va xorshunoslik asoslari. Namunaviy fan dasturi. -T.: O va O'MTV, 2011y.
- 14.Dirijorlik. Namunaviy fan dasturi. -T.: O va O'MTV, 2011y.
- 15.Sh.Ro'ziyev. Xorshunoslik. -T.: O'qituvchi, 1987y.
16. E.Toshmatov Dirijorlik. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008y.
17. Azimov K. O'zbekiston dirijorlari. -T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2011yil.
- 18.Bagrakovskiy M. Dirijorskiy texnika ruk. -M.: Prosvesheniy, 1990g.
- 19.Ginzburg A. Dirijorskoy iskustva. -M.: Muzika, 1975g.
- 20.N.Sharafiyeva. Xorshunoslik, -T.: O'qituvchi, 1993y.
- 21.N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. I-qism. -T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975yil.
- 22.N.Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. II-qism. -T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976yil.
- 23.B.Umidjonov. Jo'rsiz xorlar. -T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976yil.
- 24.Asafiyev B.V. O xorovom iskustve. -L.: Muzika, 1980g.
- 25.Egorov A.A. Teoriya i praktika raboti s xorom. -L.: Muzika, 1951g.
- 26.Miloslovov P.M. Xorovoy krujok. -M.: Prosvesheniy, 1985g.
- 27.Vaprozi xorovedeniya na muzikalno pedagogicheskome f-tete. -M.: -MGPI, 1991g.
- 28.Gudkova E.A. O'zbekskaya xorovaya literatura. -T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974yil.

29. Gudkova E.A, Vasileva A.B. Ashula darsligi metodikasi, 1974y.
30. Valenkov S.A, Xublarov E. Havaskorlar xori. –T.: G’G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980yil.
31. Qodirov R.F. Boshlang’ich maktabda ko’povozli kuylash.-T.: O’qituvchi, 1997y.
32. Rajabova D. Fortepiano mashg’ulatlari.-T.: O’qituvchi, 1994y.
33. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. –T.: O’zbekiston, 1995y, 246b.
34. Hasanov A.Sh. Musiqa va tarbiya.-T.: O’qituvchi, 1993y.
35. Kushayev A. Estetik tarbiya asoslari. -T.: O’qituvchi, 1988y.
36. Mamirov Q, S.Begmatov. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. -T.: G’ G’ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2010y.
37. Ibrphimov O, Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik. –T.: G’G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008yil.
38. Халабузар П и другие. Методика музыкального воспитания,-М.: Музыка, 1983й.
39. Soipova D. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o’zlashtirish jarayonini takomillashtirish.-T.: 2006y.
40. Вуров А. Эстетика проблемы и скоры.-М.: -Просвещение, 1987й.
41. Кабалевский Д.Б. Как рассказывать детям о музыке. -М.: Просвещение, 1987й.
42. Эстетическая культура и эстетическое воспитания. Составитель Е.С. Лобкова.-М.: -Музыка, 1993й.
43. Теплов В.М. Musiqiy qoboliatlar psixologiyasi.-М.: RSFSR. PFA. 1997Y.
44. Nurmatov H. Musiqa va estetik madaniyat.-T.: O’qituvchi, 1992y.
45. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-T.: O’qituvchi, 1996y.
46. Qudratov I. Talabalar va bolalar ashula va xor jamoalarini tashkil qilish va ishlash metodikasi. -Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyoti 2006y.

47. Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini mukammallashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Aftoreferat. Toshkent, 2010y, 23b.

**A.Navoiy nomidagi SamDU, Musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti
Boboxonova Farangizning "Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda
jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish" mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

X U L O S A S I.

Umumta'lim maktablaridagi "musiqa madaniyati" darslari o'z tizimi va tashkiliy uslubiy xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Bu avvalo uning bir ator faoliyatlar birikmasidan tashkil topishida ko'rinadi. Mazkur faoliyatlar orasida xor bo'lib qo'shiq kuylash yetakchi mavqega ega bo'lib ushbu faoliyat darsning asosiy hajmini o'zida mujassam etadi va bu faoliyatda o'quvchilarni jamoa bo'lib kuylash, vakal-xor malakalari, ijrochilik ko'nikma va mahoratlari shakllantiriladi. Bu esa juda murakkab pedagogik jarayon bo'lib musiqa o'qituvchisidan katta diapazondagi kasbiy tayyorgarlik, tajriba va pedagogik mahoratni talab qiladi.

Musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida xor bo'lib ishlash ya'ni xor-dirijorlik bo'yicha tayyorgarlik darajasi eng asosiy omil hisoblanadi, desak aslo xato bo'lmaydi. Xor-dirijorligi bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalar talabalarning oliy pedagogik ta'lim olish jarayonida shakllantiriladi.

Boboxonova Farangiz tomonidan bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi mazmunida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab amaliyotiga tayyorlashda ularni xor-dirijorligi bo'yicha xususan jo'rsiz xor asarlari bilan ishlashga tayyorlashning didaktik, nazariy, uslubiy asoslari ochib berilgan.

Muallif mavzuni tanlashda ko'plab umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilarning xor bilan ishlash faoliyatlarini kuzatish, bu o'rinda musiqqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligi va xor jamoasi va jo'rsiz xor asarlari bilan ishlash bo'yicha bilim va malakalarini qay darajada talabga javob berish nuqtai-nazaridan tahlil qilish orqali bu borada jiddiy muammolar mavjudligini ko'ra olgan. Mavjud muammolar yechimi esa eng avvalo oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor-dirijorligi bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlarini ay darajada to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liq ekanligi ishning birinchi bobida asoslab berilgan va mazkur muammolarni ijobiy rejimga erishishi imkonini beruvchi pedagogik faoliyat mazmuni o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan.

Muallif tomonidan bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor-dirijorligi amaliyotiga xususan jo'rsiz asarlar bilan ishlash faoliyatga tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tizimi uning dissertatsiya ishining ilmiy, amaliy ahamiyat kasb etishida eng muhim va ahamiyatli jihatlaridandir chunki. Chunki bu metodik tizim tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra yuqori samaradorlikka ega ekanligi va bu o'rinda muallifning ijodiy va ilmiy izlanishhida alohida ta'kidlashga loyiq ekanligidan dalolat beradi.

Talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish uslublarini amalyotga tadbqiq etish bilan bog'liq amaliy ishlar ishning uchunchi bobi mazmunida o'z ifodasini topgan. Aynan shu jarayonda olib borilgan ish usul, shakl vositalaridan foydalanish oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan xor va xorshunoslik hamda "dirijorlik" sinfi o'qituvchilari uchun muhim metodik xizmat qilishi mumkin.

Chiqarilgan xulosalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar ishga mustaqil va ijodiy yondoshilganligini, muallifning ish bajarishda to'g'ri yo'lni tanlay bilgani va tadqiqot maqsadini amalga oshirishda ilg'or ish usul va shakllarni aniqlash bilan ularni amaliyotga to'g'ri tadbqiq etaolganligini ko'rsatadi.

Ishda ayrim juz'iy kamchiliklar ham kuzatiladi. Bu tajriba-sinov ishlarining tor doirada cheklanganligi, ayrim o'rinlarda qaytarish muammolariga va grafik xatolarga yo'l qo'yilganligida ko'riladi. Shunday bo'lsada ushbu dissertatsiya ishini mustaqil bajarilgan, tugallangan va uni bajarishga qo'yilgan talablarga to'liq javob beradigan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

prof: A.Ergashev.

**A.Navoiy nomidagi SamDU, Musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti
Boboxonova Farangizning "Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda
jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish" mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga**

T A Q R I Z.

Yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda san'atning barcha turlari qatorida xor ijrochiligi eng muhim vositalardan hisoblanadi. Darhaqiqat, umumta'lim maktablaridagi musiqiy ta'lim mazmunida bolalarning musiqiy idrok, madaniyati, badiiy didi, dunyoqarashi shakllanadi. Bu xislatlar musiqiy ta'limning qo'shiq kuylash ya'ni xor bo'lib kuylash faoliyatida yorqin ko'rinish oladi. Chunki jamoaviy xor ijrochiligi bugungi kunda eng ommaviy ijrochilik shakli sifatida deyarli barcha taraqqiy qilgan mamlakatlar madaniyatida munosib o'rin topgan san'atdir. O'zbek xalqining boy madaniyati xazinasida esa xor san'ati salmoqli o'rin egallaydi.

Boboxonova Farangizning "Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini jo'rsiz asarlar bilan ishlashi haqida beriladigan nazariy va amaliy tushunchalarni pedagogik va uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1 va 2 bobida xor san'atining musiqa ta'lim-tarbiyasi tizimida tutgan o'rni va ahamiyati, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, muammolari va talabalarning jo'rsiz asarlar bilan ishlashga o'rgatishning o'ziga xos metodik imkoniyatlari keng yoritib berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining 3-bobida esa amaliy tajribalar, talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish uslublari tajriba-sinov ishlari va mezonlar orqali ko'rsatib berilgan.

Olib borilgan amaliy tajribalar mohiyati va mazmuni ushbu ishni mustaqil bajarilgan va tugallangan ish sifatida baholash imkonini beradi.

Chiqarilgan xulosa va muallifning o'z izlanishlari samarasi o'laroq bergan tavsiyalari ham ilmiy qiymatga egaligi bilan diqqatga molikdir.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ishni muhim dolzarb muammoni tadqiqiga bag'ishlangan izlanish sifatida baholash va himoyaga tavsiya etish mumkin.

Dotsenti:

I. QUDRATOV.

**A.Navoiy nomidagi SamDU, Musiqiy ta'lim yo'nalishi magistranti
Boboxonova Farangizning “Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda
jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish” mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga**

T A Q R I Z.

Jamiyatning rivojlanganlik darajasi va taraqqiyoti o'sib kelayotgan yosh avlodning madaniy, ma'naviy va estetik kamolotga erishishi bilan belgilanadi. Respublikamizda yosh-avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda esa musiqa ta'limi va uning negizida olib borilayotgan tarbiya, maqsad va vazifalar alohida o'rin tutadi. Jumladan xor san'ati alohida mavqega ega bo'lib, unda adabiy va musiqiy ijodiyot uyg'unlashib yaxlit badiiy obraz yaratiladi.

Boboxonova Farangiz tomonidan tadqiq etilgan muammo “Xor mashg'ulotlari jarayonida talabalarda jo'rsiz asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish” deb nomlanib masalaning xuddi shu tarzda magistrlik dissertatsiyasi sifatida o'rganilmaganligi uning mustaqil bajarilganligini bildiradi.

Muallif o'z ishini yoritishda avvalo nazariy tomonlarini yoritishga jiddiy yondoshadi. Shu o'rinda respublikamizda taniqli olimlarning xor san'ati va jo'rsiz asarlar ustida ishlashga oid ilmiy-amaliy ishlarini atroflicha o'rganadi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartlari va o'quv dasturiga ko'ra xor san'ati

bo'yicha o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim va tushunchalarni tahlil qilib, bu boradagi mavjud muammolar yuzasidan o'z fikr, xulosa va tavsiyalarini ilgari suradi va ularni o'z tadqiqiy ishini bajarish davomida erishilgan natijalariga asosan dalillashga harakat qilgan.

Ishning apparat qismi ilmiyligi bilan ajralib turadi. 1-bob esa "Xor san'atining musiqiy ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati" deb nomlanib, uning mazmunida xor san'atining mohiyati o'rni, uning turli uslub va janrlari tasnifi yoritib beriladi.

2-bobda esa xor ijrochiligida jo'rsiz kuylashning yuqori malakaviy tayyorgarlik omillari va talabalarni jo'rsiz asarlar bilan ishlashga o'rgatishning o'ziga xos metodik imkoniyatlariga ta'rif beriladi va ularning samaradorlik xususiyatlari ishning 3-bobida tajriba-sinov ishlari natijalari orqali dalillanadi. Olib borilgan amaliy tajribalar mohiyati va mazmuni ushbu ishni mustaqil bajarilgan va tugallangan ish sifatida baholash imkonini beradi. Chiqarilgan xulosalar va ishlab chiqarilgan tavsiyalar ishning nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi va undan amaliy faoliyatda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda mazkur ish va uni bajarish bo'yicha "Nizom talablariga" javob beradi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Samarqand San'at kolleji direktori:

H.X. HAMDAMOV